

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Qarshi davlat universiteti
Geografiya kafedrası**

**OMONOV ZAVQIDDINning
“5140500 geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta'lim
yo'nalishi bo'yicha
bakalavr darajasini olish uchun
*AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDA KICHIK BIZNES VA
XUSUSIY TADBIRKORLIKNING O'RNI* mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Qarshi-2012

**MAVZU: AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDA
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIKNING O‘RNI**

MUNDARIJA

KIRISH.....3-6

I bob. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK RIVOJI MAMLAKATIMIZ TARAQQIYOTI VA AHOLI FAROVONLIGINING MUHIM OMILI

**1.1. Aholi farovonligi va turmush darajasini oshirishda kichik biznes va
xususiy tadbirkorlikning o‘rni.....7-17**

**1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim sohasi va
harakatlantiruvchi kuchi.....17-25**

II bob. AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH VA FAROVONLIGINI YUKSALTIRISH – PIROVARD MAQSADIMIZGA ERISHISHNING ASOSIY KO‘RSATKICHI

**2.1. Mamlakatimizda yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, aholining
daromadlari va farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
imkoniyatlaridan foydalanish26-35**

**2.2. Qashqadaryo viloyatida aholi bandligini ta‘minlashda kichik biznes va
xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning o‘rni.....36-43**

III bob. AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH VA HAYOT SIFATINI YANADA YUKSALTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

**3.1. Ish bilan bandlikni ta‘minlash orqali aholi daromadlarini oshirish va
hayot sifatini yuksaltirish masalalarini hal etish yo‘llari.....44-57**

**3.2. Yangi ish o‘rinlarini tashkil etish orqali aholi bandligini ta‘kinlashning
ustuvor yo‘nalishlari.....57-73**

XULOSA.....74-78

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....78-83

KIRISH

Jahonda ro‘y berayotgan moliyaviy-iqtisodiy inqiroz ta‘sirida dunyo bo‘yicha 56 million kishidan ortiq ishsizlar armiyasi vujudga kelgan bir sharoitda O‘zbekistonda yuz minglab yangidan-yangi ish o‘rinlari tashkil etilmoqda. Buning yana bir ahamiyatli tomoni - yangi ish o‘rinlarini yaratishning o‘ziga xos mexanizmlarining tarkib topgani va, uning bir qator yo‘nalishlar bo‘yicha izchil amal qilib kelayotganidir.

Mamlakatimizda aholini samarali muhofaza qilishga yo‘naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuqori iqtisodiy o‘sish va bandlik sur‘atlari aholi farovonligini oshirishni ta‘minlamoqda.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish iqtisodiy o‘sishni ta‘minlash, yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatida amal qilmoqda.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish davlatning aholiga yaxshi hayot faoliyati uchun beradigan shart-sharoitlarini ta‘minlaydigan bevosita maqsadli kafolatlar tizimidir. Boshqacha aytganda, ijtimoiy muhofaza tizimi bozor tizimi samaradorligining tor tasavvurlaridan emas, balki haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta‘minlash masalalarini hal qilish maqsadidan kelib chiqib tashkil etilishi kerak. Shu bilan birga, ijtimoiy muhofaza o‘zi amal qilib turgan ishlab chiqarish munosabatlari tizimidan, jahon iqtisodiyotining hozirgi holati imkoniyatlaridan keng foydalanadi va hozirgi zamon talablari asosida rivojlanib boradi.

Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi.

Bozor munosabatlari sharoitida aholining ish bilan bandligini ta‘minlash muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki ishsizlik muammosining mavjudligi bozor iqtisodiyotining ajralmas xususiyatidir. Shunday ekan, ishsizlik muammosini o‘rganishdan asosiy maqsad - aholining ish bilan bandligini oshirish orqali mamlakatda ishlab chiqarishni kengaytirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga aloqador tadbirlar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning o‘rganilganlik darajasi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish, uning aholi bandligini ta‘minlashdagi o‘rnini oshirish bo‘yicha juda ko‘p bahs-munozaralar, tadqiqotlar amalga oshirilgan, ilmiy maqolalar chop etilgan.

Aholi bandligini ta‘minlash, aholining turmush sifatini oshirish va farovonligini ta‘minlash bo‘yicha respublikamiz va MDH mamlakatlarining yetakchi olimlari tomonidan ko‘plab darslik va o‘quv qo‘llanmalar chop etilgan. Jumladan, Abdurahmonov Q., Grachev M., Odegov Y. va va boshqa mualliflarning darslik va o‘quv qo‘llanmalari nashr etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Iqtisodiyot instituti tomonidan 2006 yilda nashr qilingan “O‘zbekiston iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish muammolari:

nazariya va amaliyot” to‘plamida, iqtisodchi olimlar va mustaqil tadqiqotchilar o‘zlarining monografiyalarida, ilmiy maqolalarida, xalqaro, respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalardagi ma‘ruzalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlashning muammolarini ochib berganlar.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda, aholi bandligini ta‘minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni o‘rni va ahamiyatini, bu sohani yanada rivojlantirishni takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlarini yoritib berish.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining rivojlanishi, aholi bandligini ta‘minlashdagi o‘rni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish, aholi bandligini ta‘minlashning asosiy yo‘nalishlari.

Tadqiqot vazifalari.

- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotida tutgan o‘rnini yoritib berish;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish ko‘rsatkichlarini ko‘rsatib berish;
- O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘sish sur‘atlarini ta‘minlashda, aholi bandligini ta‘minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining o‘rni va rolini yoritib berish;
- Mamlakat eksport salohiyatini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni va rolini ko‘rsatib berish;
- Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib berish;
- Aholi bandligini ta‘minlashning, uning turmush sifati va farovonligini yanada oshirishning asosiy yo‘nalishlarini ko‘rsatib berish.

Tadqiqot metodlari.

Nazariy tahlil, matematik usul, statistik usul, abstraksiya usuli, taqqoslama usul, induktiv va deduktiv usul.

Tadqiqotning metodologik asosi.

Bitiruv malakaviy ishini mavzusini yoritishda O‘zbekiston Respublikasi Qonunlaridan, O‘zbekiston Respublikasi hukumatining qarorlaridan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari, ma‘ruzalari, Farmon va qarorlaridan, Davlat dasturlaridan, huquqiy-meyoriy hujjatlardan, Davlat statistika qo‘mitasi va viloyat statistika boshqarmasining davriy statistik to‘plamlaridan keng foydalanildi. Shuningdek, Respublikamiz iqtisodchi olimlarining darsliklari, o‘quv qo‘llanmalari, monografiyalari, ilmiy maqolalari ommaviy axborot vositalari manbalariga murojaat qilindi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi.

1. Aholi bandligi mohiyatini yoritib berishga harakat qilinganligi;
2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mohiyatini yoritib berishga harakat qilinganligi;
2. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi mavjud muammolarni ochib berishga harakat qilinganligi;
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarkibiy o'zgarishlarni yoritishga alohida e'tibor qaratilganligi;
4. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirishda aholi bandligini ta'minlashda, uning turmush sifatini va farovonligini yanada oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish ko'rsatichlarini tahlil qilish, o'rni va ahamiyatini, uni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berilganligi;
5. Qashqadaryo viloyati iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish ko'rsatkichlarini tahlil qilinganligi;
6. Har bo'limni yoritishda nazariy bilimlarni milliy iqtisodiyot, hududiy iqtisodiyot amaliyoti bilan bog'lashga harakat qilinganligi.

Bitiruv malakaviy ishning mazmuni.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivoji mamlakatimiz taraqqiyoti va aholi farovonligining muhim omili, aholi farovonligi va turmush darajasini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim sohasi va harakatlantiruvchi kuchi ekanligi yoritilgan.

Ishning ikkinchi bobida aholi turmush darajasini oshirish va farovonligini yuksaltirish – pirovard maqsadimizga erishishning asosiy ko'rsatkichi ekanligi, mamlakatimizda yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik imkoniyatlaridan foydalanish, Qashqadaryo viloyatida aholi bandligini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning o'rni yoritilgan.

Ishning uchinchi bobida aholi daromadlarini oshirish va hayot sifatini yanada yuksaltirishning asosiy yo'nalishlari va hayot sifatini yuksaltirish masalalarini hal etish yo'llari ko'rsatib berilgan.

Bitiruv malakaviy ishning tuzilishi va hajmi.

Bitiruv malakaviy ish kirish, uch bob, 8 bo'lim, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ___jadval, ___rasm, ___chizma___ ta ilovadan va _____so'zdan iborat bo'lib, uning umumiy hajmi _____sahifada.

I bob. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK RIVOJI MAMLAKATIMIZ TARAQQIYOTI VA AHOLI FAROVONLIGINING MUHIM OMILI

1.1. Aholi farovonligi va turmush darajasini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni

Aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun "turmush darajasi", "xalq farovonligi", "turmush faoliyati xavfsizligi", "turmush tarzi", "mehnat faoliyati sifati", "turmush sifati" kabi turli xil tushunchalar qo‘llaniladi. Ba‘zan turli atamalar bir mazmuni anglatrsa, boshqa hollarda ular o‘rtasidagi farq muayyan xarakter kasb etadi, mazmuni sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, mazkur tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligini qayd etish lozim.

O‘zbekistonda aholining moddiy, ma‘naviy, ijtimoiy ehtiyojlari qondirilish darajasini ifodalaydigan "turmush darajasi" atamasi kengroq qo‘llaniladi. Bunday tavsif ko‘proq turmush darajasi statistikasini xarakterlaydi. Shu bilan birga turmush darajasi - ko‘plab omillar yig‘indisi ta‘sirida bo‘lgan o‘zgaruvchan jarayondir. Turmush darajasi muntazam o‘zgarib turadigan turli ne‘matlarga bo‘lgan ehtiyojlarning tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan, ehtiyojni qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi.

Aholi real daromadlarining oshishida asosiy omil bo‘lib makroiqtisodiy sharoitning qulayligi, iqtisodiy o‘shishning tez sur‘atlarda oshishi, inflyatsiyaning sezilarli darajada pasaygani, iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar va aholini aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchaygani hisoblanadi.

So‘nggi yillarda ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorini oshirish, jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan soliq stavkalarini kamaytirish, inflyatsiya darajasini pasaytirish bo‘yicha ko‘rilgan chora-tadbirlar natijasida aholining yalpi va real daromadlari sezilarli ravishda oshdi, uning xarid qobiliyati barqaror sur‘atda o‘sib bormokda. Jumladan, 2009 yilda o‘rtacha ish haqi 2000 yilga nisbatan 28,5 barobar, pensiyalarning o‘rtacha miqdori qariyb 18 barobar, aholi jon boshiga nisbatan pul daromadlari esa 12 barobar oshdi.

Aholining o‘zib borayotgan to‘lov qobiliyati bilan mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan iste‘mol tovarlari hajmi o‘rtasida ichki bozorda mutanosiblikni ta‘minlash, bunday mahsulotlar turini kengaytirish, bozorlarimizni ular bilan ishonchli tarzda to‘ldirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aholining turmush farovonligi ko‘p jihatdan uning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta‘minlanish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Mazkur masalani hal etishda ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish, dehqon va fermer xo‘jaliklari faoliyatidan yanada samarali foydalanish zarur bo‘ladi.

Ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish jarayoni aholi hayot faoliyati uchun sharoitlar yaratadi. Bu sharoitlar «turmush sifati» tushunchasi bilan tavsiflanadi. Turmush sifati ko'plab omillar ta'sirida shakllanadi.

Aholi turmush darajasini yaxshilash va ularga qulayliklar yaratish jarayonida xonadonlarni gazlashtirish va aholi uchun yetkazib beriladigan tabiiy gaz narxini belgilash masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamiz aholisiga tabiiy gaz qo'shni davlatlarga nisbatan arzon narxlarda yetkazib beriladi. Masalan, aholiga 1 ming m hajmdagi tabiiy gazni sotish uchun Qirg'izistonda 309 dollar, Tojikistonda 303,5 dollar, Qozog'istonda 100-140 dollar, O'zbekistonda esa 30 dollar narx belgilangan.



3.3.1-расм. Турмуш сифатининг шаклланишига таъсир кўрсатувчи омиллар.

Shuningdek, mustaqillikka erishilgach, aholi uy-joylari va xonadonlarni gazlashtirishga katta e'tibor qaratildi. Ayniqsa, bu borada shahar va qishloqlarning gaz bilan ta'minlanish darajasi o'rtasidagi tafovutni keskin qisqartirishga ahamiyat berildi.

Buning natijasida 2010 yil 1 yanvar holatiga respublikamizdagi xonadonlarning gaz bilan ta'minlanish darajasi shahar joylarda 85 foizni, qishloq joylarda esa 78,7 foizni tashkil etdi. Shu kunga qadar jami gazlashtirilgan xonadonlar soni 4270,6 mingtani tashkil etib, shundan 2419,8 mingta xonadon shaharda, 1850,8 mingta xonadon qishloqda joylashgan.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o'rin egallaydi. Bugungi kunda biz bu sohani rivojlantirmasdan turib iqtisodiyotimizning kelajagini ta'minlay olmaymiz. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirishda, aholini ish bilan ta'minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda eng asosiy omillardan biri hisoblanib, jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo'lgan

mulkdorlar sinfining, ya'ni o'rta sinfning shakllanishi va mustaxkamlanishini ta'minlaydi. Shuningdek, bu soha hozirda jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barkarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni tarakkiyot yo'lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda. Shuning uchun xam mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov tomonidan 2011 yil yurtimizda «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb e'lon qilindi.

Kichik biznes sohasining iqtisodiyotdagi ahamiyati uning iqtisodiyotda raqobat muhitini ta'minlash, yirik korxonalar uchun mahsulot va xizmatlar yetkazib berish, yangi ish o'rinlarini yaratish va ikkilamchi bandlikni ta'minlash, bozor tizimining moslashuvchanligini oshirish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni jadallashtirish, resurslarni ishlab chiqarishga safarbar etish, solik tushumlari hajmining o'sishini ta'minlash, aholi daromadlari darajasini barkarorlashtirish kabi omillar bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2010 yil 14 dekabrda «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy choralari haqida»gi F-3539-sonli Farmoyishida: kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilishni kuchaytirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliya-xo'jalik faoliyatiga davlat va nazorat tuzilmalarining aralashuvini keskin kamaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini tashkil etish tartibini soddalashtirish va faoliyat yuritishning moddiy-texnik shart-sharoitlarini ta'minlash, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga solik va boshqa to'lovlar borasida yengilliklar yaratish, hisobot topshirish tizimini takomillashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini yanada takomillashtirish, kichik biznesni rivojlantirishga xorijiy investitsiyalarni keng jalb etish, ularning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ishtirokini kengaytirish, ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga keng yo'l ochib berish, kichik biznes subyektlariga taqdim etilayotgan imtiyoz va qulay sharoitlar tizimini yanada rivojlantirish kabi ustuvor yo'nalishlar belgilab berilgan.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ijtimoiy sohadagi xizmatlaridan biri - bu aholining ish bilan bandlik darajasini oshirishdir. O'z navbatida u mazkur vazifani ikkita asosiy yo'l orqali bajarishi mumkin: yangi ish o'rinlarini barpo etish va vaqtincha bo'sh bo'lgan yoki ish bilan kisman band bo'lgan aholini ishga jalb etish, yoki boshqacha aytganda, ikkilamchi bandlikni ta'minlash. Aholining ish bilan bandligi va qo'shimcha daromad olish imkonini yaratish orqali jamiyatdagi ijtimoiy muvozanatni saqlashga katta hissa qo'shish mumkin. Ushbu jihatlarni ham alohida e'tirof etgan holda, Prezidentimiz «Ichki bozorimizni raqobatdosh va sifatli mahsulotlar bilan to'ldirishda, bugungi kunda biz uchun eng dolzarb masalalardan biri

bo‘lmish aholimizni, avvalambor, yoshlarimizni ish bilan ta‘minlash va shu asnoda ularning munosib daromad topishi, farovonligining oshib borishiga erishishda ayni shu sohani tez va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish eng asosiy omillardan biri ekanini hech unutmashimiz darkor»¹, deb ta‘kidlab o‘tganlar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining rivojlantirilishiga xo‘jalik yuritishning ma‘muriy-buyrukbozlik tizimi salbiy oqibatlarini bartaraf etishdagi asosiy yo‘nalishlar sifatida ham qarash mumkin. Jumladan, aynan ma‘muriy-buyrukbozlik tizimi davrida noto‘g‘ri yuritilgan ijtimoiy siyosat oqibatida yirik shaharlarda ishlab chiqarishning haddan ziyod to‘planishi, kichik shahar va qishloq joylarda esa ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning past darajada qolishi tabaqalashuvni keskinlashtirdi. Bunday yaroqsiz usul ayniqsa, mamlakatimizdagi ko‘plab kichik shahar va qishloqlardagi ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmaga salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Respublika aholisining asosiy qismi qishloqlarda joylashganiga qaramay, mavjud ortiqcha ish kuchi uchun yangi ish joylarini tashkil etish muammosi hal etilmadi. Shunga ko‘ra, bu muammoni tezlik bilan hal etishning asosiy yo‘llaridan biri - kichik korxonalarni, ayniqsa, sanoat ishlab chiqarishga va qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlashga ixtisoslashgan kichik korxonalarni tashkil etishdir.

So‘nggi yillarda mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta‘minlashning yangicha va noan‘anaviy ko‘rinishlarini joriy etish hamda rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Jumladan, mamlakatimiz axolisining bandligi va daromadlari barqaror o‘shishini ta‘minlashga doir vazifalarni hal etishda kasanachilikning turli shakllarini keng rivojlantirish, jumladan, uning yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat berilmokda. Jumladan, 2006 yil 5 yanvarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-3706-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur farmonga muvofiq, ish bilan bandlikning ushbu shaklini rag‘batlantirish maqsadida bir qancha imtiyoz va kafolatlar ko‘zda tutilgan.

¹ Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2010 yil 8 dekabr



-rasm. Kasanachi huquqlari va imtiyozlari

Prezident farmonida belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish xamda ishlab chiqarish korxonalari va aholi o'rtasidagi mehnat kooperatsiyasini rivojlantirish maqsadida respublika va uning hududlarida hududiy dasturlar ishlab chiqilib, ularning doirasida 2010 yilda mamlakatimizning 700ga yaqin yirik sanoat korxonasida 62,5 mingdan ziyod kasanachilik o'rni yaratildi. Natijada ishsiz yurgan xotin-kizlar, uy bekalari, yoshlar, nogironlar va mehnat bozorida erkin raqobat qilish imkoniyati cheklangan shaxslar ish bilan ta'minlandi.

Kasanachilik mehnatini rivojlantirish borasida mavjud salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida Prezidentimizning 2007 yil 6 aprelda qabul qilingan «Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-616-sonli qaroriga muvofiq, kasanachilik mehnati tamoyillarini transport, aloqa, qurilish va qurilish industriyasi tarmoqlarining yirik korxonalariga hamda tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi kichik sanoat korxonalariga ham qo'llash belgilab qo'yildi. Bu esa, o'z navbatida, aholi bandligi va daromad manbaining yangi shakli hisoblangan kasanachilik mehnatining rivojlanishi va bu borada mavjud salohiyatdan samarali foydalanishga olib keldi.

O'zbekistan Respublikasi Prezidentining 2006 yil 23 martdagi PQ-308-sonli karori bilan belgilangan chorvachilikni izchil rivojlantirishni amalga oshirish jarayonida, bandlikka ko'maklashuvchi va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan shaxsiy va dehqonchilik xo'jaliklarida qoramol yetishtirish bilan band bo'lgan 101,8 ming aholi ro'yxatga

olindi. Ularning barchasiga mehnat daftarchalari berildi. Ayni vaqtga kelib, mehnat organlari tomonidan qoramol yetishtirish bilan band bo'lgan, ro'yxatga olingan aholi soni 1,345 million kishiga yetdi, bu band bo'lganlar umumiy sonining 11 foizini tashkil qiladi.

Yangi ish o'rinlari yaratishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli katta bo'lmoqda. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, o'zining qator xususiyatlariga ko'ra, mehnatga layoqatli aholining bandlik darajasi ortishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, bu soha kam kapital sig'imiga ega yangi ish o'rinlarini tez tashkil etishga qodir. YA'ni, kichik korxonalarda har bir ish o'rniga kapital sarfi yirik korxonalaridagiga nisbatan ancha kam bo'ladi.

Ikkinchidan, kichik korxonalar uchun kapitalning quyiroq texnik tuzilmasi xos. YA'ni, kichik korxonalarda yirik korxonalariga nisbatan mehnat birligiga ishlatilayotgan ishlab chikarish vositalari birligi ko'proq to'g'ri keladi.

Uchinchidan, kichik biznes iqtisodiy faol aholining ish bilan band bo'lishi uchun ma'qulrokdir. Chunki bu ularga tashabbus ko'rsatish va ijodiy g'oyalarini amalga oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

To'rtinchidan, bevosita kichik korxonalarda ish bilan bandlikning moslashuvchan shakllarini qo'llash mumkin. Xo'jalik yuritishning bu subyektlaridagi to'liksiz bo'lmagan ish kuni yoki haftasi, o'rindoshlik, moslashuvchan ish grafigi mehnatga layoqatli aholining turli toifalari uchun maqbul bo'ladi.

Beshinchidan, kichik biznes asosan mehnat sig'imi ko'p talab etiladigan tarmoqlarda jadal rivojlanib, ijtimoiy mehnatni tashkil kilishning ulkan sohasi, davlat va mahalliy budjetlarga moliyaviy tushumlarning muhim manbai hisoblanadi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda olib borilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, odamlarning "hayot falsafasini" o'zgartirdi. Vujudga kelgan erkinlik, har bir kishiga o'z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkoniyatining berilishi natijasida uzoq yillar davomida boqimandachilik kayfiyatida yurgan aholi orasidan ishbilarmon, tadbirkor, mohir xo'jalik egalari, hunarmandlar, kasanachilar, ish yurituvchilar ajralib chiqdi. Endilikda ular faqat davlatdan ish joyi va ish haqi kutib qolmasdan, balki o'zlari ham xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanib, yangi ish o'rinlarini yaratishga harakat qilmoqdalar. Bu natijalarni mamlakatimizdagi aholi daromadlari tarkibining o'zgarishi orqali ham kuzatish mumkin. 1990 yilda aholi daromadlari tarkibida ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar 69,8 foizni, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotishdan olinadigan daromad 7,6 foizni, tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromad 3 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2009 yilda bu daromadlarning ulushi tegishli ravishda quyidagicha o'zgardi: 29,7 foiz, 27,0 foiz, 28,1 foiz. Bundan ko'rinadiki,

tadbirkorlik faoliyatidan olinadigan daromad ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar darajasi bilan deyarli baravarlashgan.

Demak, mustaqillik yillari davomida oilalar moddiy asoslarining rivojlanishi, ular moliyaviy imkoniyatlarining kengaygani, yashash sharoitlari (elektr energiyasi, gaz, ichimlik suvi, oqova suv tizimi bilan ta'minlanganlik darajasi)ning yaxshilanishi kabi omillar endilikda biznesni oila a'zolari doirasida tashkil etish uchun qulay zamin yaratdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligi darajasini oshirishdagi roli ham ahamiyatli hisoblanadi. Haqiqatan ham, tadbirkor o'z mablag'larini ishlab chiqarish sohasiga kiritar ekan, ayni paytda o'z daromadlarini oshirish bilan birga jamiyat boshqa a'zolarining ham ish hamda daromad bilan ta'minlanishiga moddiy negiz yaratadi. Mamlakatimizda bu boradagi faoliyat ham kengayib bormoqda: 2000-2008 yillar davomida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida band bo'lganlar soni 3,3 marta oshdi. 2010 yilning 1 yanvar holatiga kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo'lganlar soni 8402,3 ming kishini, shu jumladan, yakka tadbirkorlar 6446,2 ming kishini, kichik korxonalar va mikrofirmadagi bandlar soni 1956,1 ming kishini tashkil etdi. Ushbu soha vakillari tomonidan 2002 yilda 369,3 mingta, 2005 yilda 434,2 mingta, 2006 yilda 290 mingta, 2009 yilda 390 mingdan ortiq yangi ish o'rinlari yaratildi.

Aholining har bir a'zosi turmush sharoitlarini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, salomatligini mustahkamlash, ishchi kuchi sifatida ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish salohiyatini yuksaltirish davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ana shu ma'noda aholi muhofazasini ta'minlashdagi birinchi va asosiy vazifa ham insonni kamol toptirish, uning oila va jamiyatdagi o'rni hamda nufuzini ko'tarish bilan bog'liq. Binobarin, jamiyatning insonparvarligi mamlakat iqtisodiy salohiyatining qanchalik yuksakligi bilangina emas, balki bu salohiyat har bir kishining farovon yashashi va har tomonlama rivojlanishi uchun yo'naltirilgani bilan ham baholanadi.

Ta'kidlash joizki, mamlakatimizda aholini, ayniqsa kam ta'minlangan aholi qatlamini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash uchun har yili davlat budjetidan muayyan miqdorda mablag' ajratilmoqda. Bunday yordam o'tish davrida ham, inqiroz sharoitida ham aholining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida aholining muhtoj qatlamlarini sotsial muhofaza qilish nafaqat ijtimoiy, ayni vaqtda siyosiy ahamiyatga egadir. Chunki jamiyatning o'zagini tashkil etuvchi inson uning yuksalish darajasi, haqiqiy qiyofasini belgilaydi. Shu boisdan, aholining mazkur qatlamlarining ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holati miqdoriy o'zgarishlarini, ularning daromadlari va xarajatlarining shakllanish xususiyatlarini, tarkibini o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi:

birinchidan, daromad shakllari o'zgardi, ya'ni uning an'anaviy turlari (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) qatoriga mutlaqo yangilari - tadbirkorlik faoliyatidan, mulkdan, ko'chmas mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo'shildi;

ikkinchidan, daromadlarning tarkibiy qismlari miqdor va sifat jihatidan o'zgardi, bu borada fuqaro ixtiyoridagi haqiqiy daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsiyenti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, oila pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi tushuncha va kategoriyalar paydo bo'ldi;

uchinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar va shaxsiy mulkni sotib olish uchun xarajatlar, tijorat banklariga qo'yilmalar shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, aholi daromadlarining darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning zaruriy ehtiyojini qondirish, salomatligini saqlash, dam olishini tashkil etish, ma'lumot olishi, bo'sh vaqtlarini madaniy tarzda o'tkazishi bo'yicha imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi. Mamlakatimizda aholi daromadlarining shakllanishi o'ziga xos xususiyatga ega

O'zbekiston hukumati o'z zimmasiga mamlakatimizda kam ta'minlangan toifa miqdorini kamaytirish va jamiyatimiz hayotida insonparvarlik tamoyillarining yanada rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida Mingyillik rivojlanish maqsadlari borasida ma'lum bir majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan. Xalqaro hamjamiyat, shu jumladan, BMTning turli tarkibiy tuzilmalari bu borada moliyaviy yordam berish va mamlakatimizdagi davlat va nodavlat tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali ko'maklashishga hozirligini izhor etadi. O'zbekistonning 2015 yilgacha bo'lgan davrdagi vazifasi kam ta'minlangan aholi hissasini 50 foizga qisqartirishdan iborat. Mamlakatimizda aholini samarali muhofaza qilishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuksak iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari aholi farovonligini oshirishni ta'minlamoqda.

Aholi real daromadlarining oshishida makroiqtisodiy sharoitning qulayligi, iqtisodiy o'sishning tez sur'atlarda ortib borishi, inflyatsiyaning sezilarli darajada pasayishi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va aholini aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchayishi hisoblanadi.

Bunday sharoitda aholining o'sib borayotgan to'lov qobiliyati bilan mamlakatimiz korxonalarida ishlab chiqarilayotgan iste'mol tovarlari hajmi o'rtasida ichki bozorda mutanosiblikni ta'minlash, bunday mahsulotlar turini kengaytirish, bozorlarimizni ular bilan ishonchli tarzda to'ldirib borish alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki aholining turmush farovonligi ko'p jihatdan uning oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlanishi darajasiga bog'liq bo'ladi.

Ayni paytda aholi farovonligi, uning real daromadiga ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri – ichki bozordagi oziq-ovqat mahsulotlarining narx darajasi hisoblanadi. Chunki, asosiy oziq-ovqat mahsulotlari narxining oshishi aholi real daromadlarining pasayishiga, aksincha, narxlarning pasayishi esa, hattoki nominal daromad o'zgarmagan taqdirda ham, real daromadning oshishiga olib keladi.

1.2. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning muhim sohasi va harakatlantiruvchi kuchi

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik qobiliyati asosiy iqtisodiy resurslardan biri hisoblanib, inson omilining tarkibiy qismini tashkil etadi, Tadbirkor - bu ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish borasida bilim va malakaga ega bo'lgan, foyda olish maqsadida tavakkalchilik bilan ish ko'ra oluvchi tashabbuskor shaxs.

Tadbirkorlarning muayyan mahsulotlarni ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyati tadbirkorlik faoliyatini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik va tadbirkorlar faoliyatining kafolatlari to'g'ri-da»gi Qonunida ta'riflanishicha, «Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) - tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foйда) olishga qaratilgan tashabbuskor faoliyat».

Tadbirkorlik faoliyati asosida bir qator shart va talablar mavjud bo'ladi. Birinchidan, tadbirkor tovar va xizmatlar ishlab chiqarish jarayonida ishlab chiqarish omillarini birlashtiradi va «katalizator» vazifasini bajaradi. Ikkinchidan, biznesni yuritish jarayonida u mustaqil qarorlar qabul qilishdek qiyin bir vazifani zimmasiga oladi. Uchinchidan, tadbirkor - tashkilotchi shaxs bo'lib, yangi ishlab chiqarish texnologiyalarini joriy qilib, yangi mahsulotlar ishlab chiqarishga intiladi. To'rtinchidan, tadbirkor - tavakkal qilishdan ko'rqmaydigan insondir. U nafaqat o'z mol-mulki, vaqti, mehnati bilan, balki o'z sheriklari, hissadorlari qo'shgan mablag'lar bilan ham tavakkal qilishga boradi.

Tadbirkorlik faoliyati to'g'risida yuqorida keltirilgan turli xil fikr va yondashuvlarni umumlashtirgan holda, qisqa qilib quyidagicha ta'rif berish mumkin: tadbirkorlik faoliyati - shakli va sohasidan qati nazar, foyda olish va undan samarali foydalanish maqsadiga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir.

Tadbirkorlik faoliyatining amalga oshirilishida quyidagi bir qator qoidalarga rioya etilishi talab kilinadi:

- tadbirkorning xo'jalik yuritish bo'yicha xuquq va erkinliklarga ega bo'lishi;

- tadbirkorlik faoliyati mulkdorning o‘zi tomonidan ham, uning mol-mulki asosida ish yurituvchi subyekt tomonidan xam amalga oshirilishi mumkinligi;

- xo‘jalik yuritish erkinligini ta‘minlovchi qulay iqtisodiy muhit va ijtimoiy-siyosiy sharoitning mavjud bo‘lishi;

- mulkchilik va o‘zlashtirishning turli-tuman shakllari va turlarining mavjudligi;

- tadbirkorning maxsus bilimga, ma‘lumot va malakaviy tayyorgarlikka ega bo‘lishi.

Tadbirkorlik faoliyatining turlari va shakllari xilma-xil bo‘lib, ular orasida o‘zining xo‘jalik yuritish ko‘lamini cheklangani bilan ajralib turuvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik muhim o‘rin tutadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi o‘rni va ahamiyati bu soha tomonidan amalga oshiriluvchi vazifalar orqali namoyon bo‘ladi. Bunday vazifalarning turli-tumanligi esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasining jahondagi barcha mamlakatlar uchun ham, o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan alohida bir mamlakat uchun ham qandaydir darajada ahamiyat kasb etishidan darak beradi.

Prezidentimiz bu borada Konstitutsiyamizning 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasida quyidagilarni ta‘kidlagan edi: «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning izchil rivojlanib borishini ta‘minlash orqali biz mamlakatimizda jamiyatimizning ijtimoiy-siyosiy tayanchi va poydevori bo‘lgan o‘rta sinfning shakllanishiga va uning tobora mustahkam bo‘lib borishiga erishmoqdamiz.

Barchamizga ayonki, aynan ana shu ijtimoiy qatlam - ya‘ni o‘rta sinf yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirishdan, mamlakatimizning izchil va barqaror rivojlanishidan eng ko‘p manfaatdordir. Shu bois kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bugungi kunda jamiyatimizdagi ijtimoiy va siyosiy barqarorlikning kafolati va tayanchiga, yurtimizni taraqqiyot yo‘lidan faol harakatlantiradigan kuchga aylanib bormoqda»².

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi ahamiyati to‘grisida so‘z yuritilganda, eng avvalo, uning iste‘mol bozoridagi muvozanatni ta‘minlash vazifasini ta‘kidlash lozim. Uzoq yillik sobiq rejali iqtisodiyot tajribasidan ma‘lumki, o‘ta darajada yiriklashgan ishlab chiqarish ehtiyojlar va talab tuzilishidagi o‘zgarishlarga qiyin moslashuvchan, harakatchanlik borasida o‘ta sust hisoblanadi. Bundan farqli o‘laroq, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning eng moslashuvchan, o‘zgarib turuvchi talabga tez javob beruvchi sohasi hisoblanib, turli ehtiyojlardan kelib chiqqan holda, iste‘molchi uchun zarur bo‘lgan mahsulot va xizmatni yetkazib berish muammosini zudlik bilan hal etadi.

² Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2010 yil 8 dekabr

Shu bilan birga, ular aholi ehtiyojlarining o'zgarishi natijasida mahsulot turlarini o'zgartirish va ishlab chiqarishga joriy etishni yirik ishlab chiqarishga nisbatan kam xarajat qilgan holda amalga oshira oladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyati, ayniqsa, ko'lami jihatidan katta bo'lmagan yangi bozorlarni o'zlashtirishda yakkol namoyon bo'ladi. Mavsumiy, milliy, mahalliy ahamiyatga molik ba'zi mahsulot va xizmatlar talab hajmiga ko'ra yirik ishlab chiqarish uchun ko'p ham istiqbolli hisoblanmaydi. Biz kundalik turmushda kerak bo'ladigan uy-ro'zg'or buyumlaridan tortib ularning ta'siri va shu kabi maishiy xizmatlarni kursatadigan korxonalarining rolini odatda to'la tasavvur eta olmaymiz.

Keyingi o'n yillikda jahondagi yetakchi mamlakatlar iqtisodiyotidagi kichik biznesning roli sezilarli darajada o'zgardi. Mazkur sohada YAIMning salmoqli qismi tobora ko'proq ishlab chiqarilmoqda, ishchi kuchi aksariyat qismining ish bilan bandligi ta'minlanmoqda, barcha innovatsiyalarning yarmidan ko'proq qismi yaratilmoqda. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IhRT) ma'lumotlariga ko'ra, rivojlangan mamlakatlar ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi keyingi 30 yil ichida deyarli 70 foizga yetgan. Jumladan, bu ko'rsatkich AQShda 38 foizdan 52 foizga, Yaponiyada 47 foizdan 55 foizga, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida umumiy holda 58 foizdan 67 foizga yetgan, kichik tadbirkorlik subyektlarining ushbu mamlakatlardagi korxonalar umumiy sonidagi ulushi esa 92.5 foizdan past emas. XX asrning so'nggi 20 yili ichida kichik biznesdagi bandlik AKShdagi ish bilan bandlar umumiy sonining 47 foizidan 54 foizga, Yaponiyada 73,8 foizidan 78 foizga, Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bo'yicha o'rtacha 48 foizdan 72 foizga qadar o'sgan. Bu mamlakatlarda kichik tadbirkorlik mavkeining mustahkamlanishi davlatning shu boradagi siyosati bilan belgilab berilgan.

Jahon tajribasining tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznesni rivojlantirishdan qator mamlakatlarda iqtisodiy siyosatning o'ziga xos dastagi sifatida foydalanib kelinmoqda. Jumladan:

- 1) ishchi kuchi bandligini ta'minlashning asosiy sohasi;
- 2) iqtisodiyot innovatsiya salohiyatini rivojlantirish manbai;
- 3) ishlab chiqarish faoliyati yangi shakllarini izlash va joriy etish manbai;
- 4) davlat byudjetini soliq bilan to'ldirish (masalan, Germaniyada soliqlarning deyarli yarmini kichik biznes ta'minlaydi);
- 5) ishlab chiqarish pasayishining oldini olish (Vengriya, Chexiya, Polsha);
- 6) yirik biznes bilan uzviy bog'liq holda, mamlakat barqaror rivojlanishi hamda uning iqtisodiyoti raqobatdoshligini oshirishning asosi.

-jadval

Jahonning ayrim mamlakatlarida kichik biznesdan foydalanish yo'nalishlari

Kichik biznesdan foydalanish yo‘nalishlari	Mamlakatlar
Ishsizlik va qashshoqlik kabi ijtimoiy muammolarning keskinligini pasaytiruvchi omil	Hindiston, Albaniya, Braziliya
Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy barqarorlashuv, o‘rta sinfning tarkib topishi	Fransiya, Buyuk Britaniya, Belgiya, Germaniya, Kanada, Ispaniya
Retsessiyani bartaraf etish	Isroil, AKSH
Yangi bozorlarni barpo etish	Meksika, Kanada, Singapur, Yaponiya
Islohotlarni izchil amalga oshirish	Xitoy, Polsha, Chexiya, Vengriya, Slovakiya

Kichik biznesning iqtisodiyot rivojidadagi muhim o‘rni shu bilan ham belgilanadiki, u aholining ishbilarmonlik faolligini oshirishning, bozor iqtisodiyoti sharoitida hal qiluvchi bunyodkor kuch bo‘lgan tadbirkorlikni shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Aynan shu soha tufayli markazlashgan tarzda foydalanishning iloji bo‘lmagan ichki zaxiralar - aholining bo‘sh pul mablag‘lari, moddiy va mehnat resurslarini harakatga tushirish imkoni vujudga keladi. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochish orqali xalqning ma’naviy qadriyatlarini - milliy hunarmandchilikni yanada rivojlantirishga, unutilgan sohalarni qayta tiklashga imkon yaratiladi.

Ma’lumki, bugungi kunning eng dolzarb muammolaridan biri - atrof-muhitni muhofaza qilish muammosidir. Chunki insoniyat tomonidan ekstensiv xo‘jalik yuritish orkali tabiatga o‘tkazilgan tazyiq, yer osti va yer usti boyliklaridan ayovsiz foydalanish hozirda o‘z oqibatini ko‘rsatmoqda. Endilikda atrof-muhitni ifloslantiruvchi, o‘zidan zararli chiqindilarni chikaruvchi, barcha tirik organizmlarni zaharlovchi yirik korxonalarining faoliyatiga mutlaq erk berish - insoniyat uchun jiddiy xatardir. Bu muammo esa ko‘proq mahalliy xomashyolarni, yirik sanoat korxonalarining chiqindilarini qayta ishlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ishlab chiqarishda chiqitsiz texnologiyalardan samarali foydalanuvchi xamda eng muhimi, atrof-muhitga deyarli ta’sir ko‘rsatmaydigan zamonaviy texnologiyalar bilan qurollangan kichik korxonalarining ko‘prok tashkil etilishi orkali hal etilishi mumkin.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyatli tomonlaridan yana biri shundaki, u yirik kompaniyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni bilvosita rag‘batlantiradi. Ko‘pincha kichik korxonalarining yirik yakkahukmron ishlab chiqarishga bog‘liqligi ta’kidlanadi. Biroq bu bog‘liqlik bir tomonlama bo‘lmay, aslida yirik korxonalar faoliyatini kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yordamisiz tasavvur etish mumkin emas. Ko‘plab mayda va o‘rta kompaniyalar yirik korxonalar uchun turli ishlarni bajarib, butlovchi detal va kislarni yetkazib berib, ularning ichki pudratchisiga aylanadi. Ichki pudrat tizimi yakkahukmron ishlab chiqaruvchilar uchun o‘ta foydalidir. U boshqaruv xarajatlarini qisqartirish, mahsulot tannarxini

pasaytirish va sifatini oshirish, unchalik foyda bermaydigan turli ishlarning katta qismini mayda tadbirkorlarga yuklash orqali yakkahukmron korxonalarining kapital tejashlariga imkon yaratadi.

Bundan ko‘rinadiki, hozirgi paytda mamlakatimizda kichik biznes korxonalarining yanada rivojlanishi yirik korxonalar rivojlanishi va ular o‘rtasidagi kooperatsion aloqalarning chuqurlashuviga bog‘lik. Bu borada, ayniqsa, yetakchi korxonalarni modernizatsiya qilish va yangilash jarayonlari imkoniyatlaridan keng foydalanish lozim. Buning uchun yangi zamonaviy korxonalarni barpo etish bilan bir qatorda, mavjud yirik korxonalarni tarkibiy kayta tuzish orkali kichik zamonaviy korxonalar faoliyatini yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi.

Iqtisodiyotning turli soha va jarayonlari o‘rtasidagi mutanosiblikni ta‘minlash muammosi unda faoliyat ko‘rsatayotgan xo‘jalik yuritish shakllarining oqilona nisbatlariga ham bog‘liqdir. Xususan, iqtisodiyotdagi korporativ tuzilmalar, transmilliy korporatsiyalar va boshqa turdagi yirik korxonalar bilan kichik biznes va xususiy korxonalar o‘rtasidagi dialektik bog‘liklik aynan shunday mutanosiblikni taqozo etadi. Kichik biznes sektori iqtisodiyotdagi yirik korxonalar sektorining zaif jihatlarining ta‘sirini kamaytiradi, ular uchun samarasiz bo‘lgan jarayonlarni bajarib, yaxlit iqtisodiyotdagi «bo‘shliq»larni «to‘ldirib» turadi.

Milliy iqtisodiyotning raqobatdoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo‘lishiga ham bog‘liq ekani shubhasizdir.

Kam xarajat hisobiga yangi ish o‘rinlari yaratish imkoniyati, yirik biznes kirib bora olmaydigan bozor segmentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko‘rsatish sohasida va uncha katta bo‘lmagan mahalliy resurs bazalarini o‘zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekani kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosligini ko‘rsatadi. Shu sababli ham kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog‘liqdir.

Shu bilan bir katorada, kichik korxonalardan foydalanish miqyoslarining kengayishi ko‘p mikdordagi kapital ko‘yilmalarining amalga oshirilishini talab etmaydi, ularni tashkil etish xarajatlari tez qoplanadi. Mahsulot birligi qiymatiga to‘g‘ri keladigan ustama xarajatlar (boshqaruv xarajatlari) yirik korxonalarga qaraganda ancha past. Bularning barchasi xalq xo‘jaligi miqyosida sezilarli tejamkorlikka olib kelishi mumkin. Ishlab chiqarish xarajatlarining nisbatan tejamli bo‘lishi, tabiiyki, daromadning ham yuqori bo‘lishiga olib keladi.

Mamlakatning tashqi iqtisodiy manfaatlari nuqtai nazaridan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning tashqi savdo va tashki iqtisodiy aloqalarning boshqa shakllaridagi faol ishtiroki valyuta tushumlarini ko‘paytirishning, turli tashki iqtisodiy vazifalarni hal etishning muhim

manbaiga aylanishi mumkin. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, kichik biznes mazkur mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarini kengaytirishda katta rol o'ynaydi.

“...kichik biznes va xususiy tadbirkorlik - jamiyatimizning, bugungi va kelajak taraqqiyotimiz, farovon hayotimizning mustahkam tayanchi bo'lishi shart”³, deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Islom Karimov.

Kichik biznes tarkibiga kiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar turli mamlakatlar qonunchiligi tomonidan turlicha belgilanadi. Xususan, bizning qonunchiligimizda kichik tadbirkorlik subyektlari quyidagicha belgilangan:

1) yakka tartibdagi tadbirkorlar;

2) ishlab chiqarish tarmokdaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma kishi, xizmat ko'rsatish sohasidagi va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan o'n kishi, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish tarmoqlaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan besh kishi bo'lgan mikrofirmalar;

3) quyidagi tarmoqlardagi:

yengil va oziq-ovqat sanoatidagi, metallga ishlov berish va asbobsozlik, yog'ochsozlik, mebel sanoati hamda qurilish materiallari sanoatidagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yuz kishi;

mashinasozlik, metallurgiya, yoqilg'i-energetika va kimyo sanoati, qishlok xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilish hamda boshka sanoat-ishlab chiqarish sohaslaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan ellik kishi;

fan, ilmiy xizmat ko'rsatish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish sohalari (sug'urta kompaniyalaridan tashqari), savdo va umumiy ovqatlanish hamda boshka noishlab chiqarish sohaslaridagi, band bo'lgan xodimlarining o'rtacha yillik soni ko'pi bilan yigirma besh kishi bo'lgan kichik korxonalar.

Bugungi kunda mamlakatimiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlarini modernizatsiya qilish va yangilash quyidagi chora-tadbirlar hisobidan amalga oshirilmokda:

- mazkur tarmoqlardagi ishlab chiqarish hajmining sezilarli darajada o'sishini ta'minlash;
- korxonalarni rekonstruksiya qilish;
- zamonaviy, ilg'or va yuksak texnologik uskunalari bilan jihozlangan korxonalar tashkil etish;

³ Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. Prezident Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. “Xalq so'zi” gazetasi, 2010 yil 8 dekabr

- ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni muntazam yangilab borish.

Ushbu chora-tadbirlarni amalga oshirishda asosan tarmoq vazirlik va idoralari, ulardagi yetakchi korxonalar va birlashmalar hamda mamlakatimizdagi iqtisodiy islohotlarning o'tkazilishi va samaradorligini ta'minlashga mutasaddi davlat, nodavlat va boshqa tashkilotlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari taqozo etiladi. Shu bilan birga, fikrimizcha, ushbu jarayonlarni amalga oshirishda kichik biznes korxonalarini imkoniyatlaridan foydalanish muhim hisoblanadi.

II bob. AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISH VA FAROVONLIGINI YUKSALTIRISH – PIROVARD MAQSADIMIZGA ERISHISHNING ASOSIY KO'RSATKICHI

2.1. Yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik imkoniyatlaridan foydalanish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat mehnatga layoqatli aholini ish bilan ta'minlash, ishsizlikni bartaraf etish va mehnat bozorini tartibga solish bo'yicha faol ijtimoiy-iqtisodiy siyosat olib boradi. Chunki mehnat salohiyatidan foydalanish samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi turmush darajasini oshirish va yuksak taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga qo'shilishning muhim manbai bo'lib hisoblanadi.

Bugungi kunda O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholi bandligini ta'minlash maqsadida quyidagi qator chora tadbirlar ko'rilmogda:

1. Mehnat qonunchiligi tobora takomillashtirilib, joylardagi Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari faoliyati kuchaytirilmogda.

2. Yangi ish o‘rinlari yaratayotgan ish beruvchilar rag‘batlantirilmokda, ularga soliq, kredit va boshqa imtiyozlar berilmoqda.

3. Mehnat bozorida ishchi kuchi sifati va raqobatdoshligini oshirish maqsadida mehnat resurslarini kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash tizimi yanada takomillashtirilmoqda.

4. Aholini ish bilan ta‘minlashning eng samarali vositalari bo‘lgan kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, kasanachilik, xizmat ko‘rsatish va servis sohasi yanada jadal sur‘atlarda rivojlantirilmoqda.


5. Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj bo‘lgan toifalari moddiy qo‘llab-quvvatlanmoqda, ular uchun ish o‘rinlarini kvotalash tartibi yo‘lga ko‘yildi. Masalan, 2010 yilda 208 ming nafardan ortiq ijtimoiy himoyaga muhtoj kishilar, birinchi navbatda, ko‘p bolali ayollar, nogironlar va aholining shu kabi toifa vakillari ish bilan ta‘minlandi.

6. Davlat va mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan vaqtinchalik va jamoat ishlari tashkil etilyapti.

7. Tashqi va ichki migratsiyani tartibga solishga e‘tibor kuchaytirilmoqda.

Bundan ko‘rinadiki, bugungi kunda O‘zbekistonda mehnatga layoqatli aholining bandligini ta‘minlashning yaxlit tizimi shakllantirilgan bo‘lib, u samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. 2005-2010 yillar davomida mamlakatimizda aholi soni 8,7, mehnat resurslari soni esa 14,2 foizga o‘shib, 2010 yilda mehnat resurslari umumiy aholi sonining 58 foizini tashkil qildi. Respublikada mehnat resurslarining yillik o‘rtacha o‘shish sur‘ati 3,0-3,5 foizga to‘g‘ri kelmoqda. Shuningdek, mehnat resurslarining 98,5—99 foiz kisini mehnat yoshidagi mehnatga qobiliyatli aholidan tashkil topsa, qolgan 1-1,5 foizi ishlayotgan o‘smir va pensionerlardan iboratdir. 2010 yilda ish bilan bandlik darajasi iqtisodiy faol aholiga nisbatan 94,6 foizni, mehnat resurslariga nisbatan esa 70,5 foizni tashkil etdi.

Keyingi yillarda iqtisodiyot nodavlat sektorining ustun ravishda rivojlantirilishi o‘z navbatida bandlik tuzilmasiga ham sezilarli ta‘sir ko‘rsatmokda.



4.2.2-расм. Иқтисодиётнинг нодавлат ва давлат секторларида иш билан банд бўлган аҳоли сони.

2007-2010 yillar davomida iqtisodiyotning nodavlat sektorida band bo‘lganlarning o‘rtacha soni 11,1 foizga ortgan va aksincha, davlat sektorida band bo‘lganlar soni 1,6 foizga kamaygan. Shu bilan birga, tahlil qilinayotgan yillarda davlat sektorida band

bo'lganlar ulushi 22,1 foizdan 20 foizga tushgan, nodavlat sektorda bandlar ulushi 77,9 foizdan 80 foizga o'sgan.

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgach, asosiy e'tibor respublikada sanoat tarmoqlarini rivojlantirish, xomashyo yetishtirishdan tayyor mahsulot ishlab chikarishga o'tish, qishloq joylarda sanoat korxonalarini barpo etish va ishlab chiqarish kuchlarini qayta taqsimlashga qaratildi. Ushbu chora-tadbirlar yuzasidan amalga oshirilgan ishlar natijasida aholi bandligining tarmoqlar bo'yicha tarkibiy tuzilmasida ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi.

-jadval

**Aholi bandligining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimoti
(foiz hisobida)**

Iqtisodiyot tarmoqlari	2008	2009	2010
Jami band bo'lganlar	100,0	100,0	100,0
<i>Shundan:</i>			
Sanoatda	13,4	13,4	13,2
qishloq va o'rmon xo'jaligida	27,6	26,7	25,5
Qurilishda	8,5	8,9	9,1
transport va aloqada	5,0	5,1	5,2
savdo va sotiq, umumiy ovqatlanish	10,3	10,5	10,7
turar joy, kommunal xo'jaligi va aholiga nomaishiy xizmat ko'rsatish turlarida	3,3	3,4	3,5
sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minotda	7,6	7,6	7,7
ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmat ko'rsatishda	13,9	13,9	13,9
Boshqa soxalarda	10,4	10,5	11,2

Iqtisodiyot tarmoqlari ichida sanoat, kishloq va o'rmon xo'jaligida band bo'lgan aholi ulushi kamaygan, qolgan tarmoqlarda esa ortgan. Shu o'rinda aytish joizki, mamlakatimizda keng bunyodkorlik ishlarining jadal amalga oshirilishi natijasida qurilish tarmoklarida mehnat qilayotganlar ulushi yukori sur'atlarda ko'paymoqda. Bu holatni, ayniqsa, qishloq joylarda yaqqol ko'rish mumkin, chunki qurilish sohasida band bo'lgan qishloq aholisi soni 1991 yilga nisbatan 2,4 martaga o'sgan.

Respublikada mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligini oshirish uchun zarur sharoitlar yaratish, mehnat bozori infratuzilmasini rivojlantirish xamda bandlik masalalarini xal etishda mehnat organlari mas'uliyatini yanada kuchaytirish maksadida 2009 yil 30 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi tuzilmasini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-1251-sonli Qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarining bugungi iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitidagi yangi vazifalari belgilab berildi.

Shuningdek, ushbu tizimga tegishli tarkibiy o'zgartirishlar ham kiritildi. Jumladan, tuman (shahar) mehnat, bandlik va aholini ijtimoiy muhofaza qilish bo'limlarini bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlariga aylantirish xamda yirik mahalla fuqarolar yig'inlari qoshida aholini ishga joylashtirish bo'yicha statsionar punktlar tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar belgilandi. Ushbu markazlar avvalgi bo'limlardan tubdan farq qilib, ishsiz aholiga ko'rsatadigan xizmat ko'lami kengaytirildi va ular zimmasiga yangi vazifalar yuklandi.

-jadval

2010 yilda Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan ko'rsatilgan xizmat turlari (ming kishi)

Viloyatlar	Markazga murojaat qilganlar	Markaz yo'llanmasi bilan ishga joylashganlar	Qayta o'qishga yuborilganlar	Jamoat ishlariga jalb qilinganlar	Ishsizlik nafaqasi ?ayinlanganlar
O'zbekiston Respublikasi	658,3	566,3	16,8	46,6	32,1
Qorakalpog'iston Respublikasi	47,3	43,0	0,4	5,0	5,2
Viloyatlar:					
Andijon	55,1	49,3	1,5	2,4	1,4
Buxoro	39,8	31,7	1,3	3,6	1,6
Jizzax	32,5	28,0	0,3	2,1	0,9
Qashqadaryo	58,9	52,2	0,7	3,2	2,1
Navoiy	30,3	26,8	1,1	1,6	2,1
Namangan	58,9	49,9	0,5	4,1	2,4
Samarkand	64,4	59,0	0,7	3,2	1,2
Surxondaryo	38,0	32,9	2,3	2,3	0,4
Sirdaryo	20,9	17,7	0,7	1,0	1,7
Toshkent	43,3	39,2	0,6	2,6	3,4
Farg'ona	76,7	66,6	1,1	6,7	0,7
Xorazm	46,1	32,1	0,7	4,2	2,4
Toshkent sh.	46,2	38,0	5,0	4,1	6,4

Respublikaning barcha xududlaridagi Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan band bo'lmagan aholiga ko'rsatilayotgan xizmat ko'rsatish sifati va turlarini kengaytirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmokda. Jumladan, 2010 yilda Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) markazlari tomonidan ro'yxatga olingan 658,2 ming kishidan 566,3 mingtasi (o'tgan yilning shu davriga qaraganda 4,4 foizga o'sish) ishga joylashtirildi. Ulardan 97,3 ming kishi kvotali ish o'rinlariga ishga joylashtirildi. 50 ta kasb-hunar yo'nalishi bo'yicha 16,8

mingga yaqin ishsiz fuqaro kasbga qayta tayyorlandi (2009 yilning shu davriga qaraganda reja 83,1 foizga bajarilgan), haq to‘lanadigan jamoat ishlariga 78,9 ming kishi jalb kilindi (216 foiz o‘shish).

Har bir yirik qishlok aholi punktida aholini ijtimoiy muxofaza qilish va ishga joylashtirish bo‘yicha statsionar punktlar tashkil kilingan va faoliyat ko‘rsatmoqda. Respublikada, qishloq aholisi uchun kulayligi hisobga olingan holda, jami 1372 ta shunday punkt tashkil qilindi, har bir punktida o‘rtacha 10-12 ming nafar qishloq aholisi yoki 2-2,5 ming oilaga xizmat ko‘rsatilmoqda.

Mehnatga layoqatli aholining ish bilan bandligini ta‘minlash va ishsizlikni bartaraf etishga qaratilgan davlat siyosatining yo‘nalishlaridan yana biri «Aholini ish bilan ta‘minlash» hududiy dasturlarining amalga oshirilishidir. Mazkur dasturlarning amalga oshirilishi natijasida respublikada har yili bir necha yuz minglab yangi ish o‘rinlari barpo qilinmoqda.



-rasm. O‘zbekistonda yangi ish o‘rinlarining yaratilishi

2005-2010 yillar davomida respublikada yaratilgan ish o‘rinlari soni 520 mingtadan 950 mingtaga yoki 82,6 foizga oshgan. 2010 yilda mamlakatimizda jami 950 mingdan ortik yangi ish o‘rni tashkil etilib, ularning karyib yarmi kichik korxonalar, mikrofirmalar tashkil etish, uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni, xizmat ko‘rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, uy-joylarni ta‘mirlash ishlari ko‘lamini kengaytirish hamda ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish hisobidan yaratildi.

Mamlakatimizda 2010 yilda yaratilgan jami 950 mingdan ortik yangi ish o‘rnining 36,6 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish, 13,6 foizi yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish, 21,9 foizi uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish hisobidan tashkil etilgan.


-jadval

2010 yilda O‘zbekistonda yaratilgan ish o‘rinlari soni, birlik

Yo‘nalishlar	Jami
--------------	------

Barcha yoʻnalishlar boʻyicha yaratiladigan yangi ish oʻrinlari, jami (ish oʻrni)	950 001
shu jumladan:	
Yangi ishlab chikarish obyektlarini ishga tushirish, mavjud korxonalarni kengaytirish va quvvatlarni yangilash	56 316
Kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish	347 408
shundan:	
- sanoatda	52 882
- qurilish-pudrat ishlarini kengaytirish, jumladan, uy-joy kurilishi va taʼmirlashda	43 632
Yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish	129 177
Uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish	207 972
shu jumladan, korxonalar bilan kooperatsiyada mehnat shartnomalari asosida faoliyat olib borayotgan kasanachilik	62 518
Fermer xoʻjaliklarini rivojlantirish (parrandachilik, chorvachilik, baliqchilik va boshkalar)	127 732
Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish	61 320
Ishlamasdan turgan korxonalar faoliyatini tiklash	8 889
Bozor infratuzilmasini rivojlantirish	11 187

Soʻnggi yillarda kichik biznes subyektlarining mamlakatimizda yangi ish oʻrinlarini tashkil qilish, aholi daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatidagi natijalari salmoqli boʻlib bormokda. 2010 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mamlakatimiz iqtisodiyotida band boʻlgan jami aholining 74,3 foizi faoliyat koʻrsatdi. Bu raqam 2000 yilga nisbatan 24,6 foizga koʻpdir. Bu esa kichik biznes sohasining aholi bandligini taʼminlash va yangi ish oʻrinlarini tashkil qilish muammosini hal etishda muhim oʻrin egallashini koʻrsatmokda.



4.2.4-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligidagi ulushi.

- расм. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikning aholi bandligidagi ulushi

Kichik biznes subyektlarining aholi bandligidagi ulushi 2000 yilda 49,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 74,3 foizga yetdi yoki 2000 yilga nisbatan 24,6 foizga ko'paydi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bandlikdagi ulushini viloyatlar kesimida olib ko'radigan bo'lsak, Andijon va Samarqand viloyatlarida ushbu sohada band bo'lganlar soni 80 foizdan yuqoridir.

-jadval

O'zbekiston Respublikasi va viloyatlar buyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligidagi ulushi

	buyicha kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholi bandligidagi ulushi		
	%		
	2008 йил	2009 йил	2010 йил
O'zbekiston Respublikasi	73,1	73,9	74,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	69,9	70,5	71,2
Viloyatlar:			
Andijon	80,3	81,0	81,2
Buxoro	75	76,3	76,3
Jizzax	76,8	77,3	78,0
Qashqadaryo	73,3	74,4	74,9
Navoiy	55,3	55,9	55,9
Namangan	77,1	77,8	78,4
Samarqand	80	80,8	81,2
Surxondaryo	73,8	74,3	75,0
Sirdaryo	76,2	76,9	77,8
Toshkent	71,8	72,6	73,0
Farg'ona	77	77,5	77,5
Xorazm	76,5	77,5	78,0
Toshkent sh.	56,5	56,5	56,6

Buning natijasida respublikada yaratilayotgan yangi ish o'rinlari asosan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga to'g'ri kelmoqda.



-rasm. O‘zbekistonda 2010 yilda yaratilgan ish o‘rinlari tarkibi

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning bu afzalliklaridan samarali foydalanilmokda hamda 2010 yilda iqtisodiyotning bu sektorida 476 mingtadan ko‘prok yangi ish o‘rni tashkil etildi.



-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida yaratilgan ish o‘rinlari

2007-2010 yillar davomida respublikada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida yaratilgan yangi ish o‘rinlari soni bir me‘yorda ortib borgan, ya‘ni o‘tgan to‘rt yilda ularning soni 82,6 foizga oshgan.

Shunday qilib, mamlakatimizda mehnatga layoqatli aholining bandligini ta‘minlash maqsadida qator ijobiy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bunday tadbirlar, ayniksa, mehnatga layoqatli aholini yangi ish o‘rinlari bilan ta‘minlash, iqtisodiyotimiz uchun istiqbolli va zarur bo‘lgan tarmoqlar uchun yangi kasb va mutaxassisliklarga o‘kitish, ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish muhim o‘rin egallaydi.

“O‘ylaymanki, bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish uchun biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo‘yish

vaqti keldi. Mamlakatimizda biznesni tashkil qilishning ushbu shakli biznesni yuritishda yuzaga kelgan milliy an'analarimizga, xo'jalik yuritish faoliyatining mavjud holatiga to'la mos keladi. Ishonchim komilki, bunday biznesni tashkil qilishning qonunchilik bazasi yaratilsa, oilaviy biznesning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, iqtisodiyotning turli sohalarida uning jadal va keng rivojlanishi va yangi ish o'rinlarining ochilishiga sharoit tug'iladi"⁴, deb ta'kidlaydi Prezidentimiz Islom Karimov.

Prezidentimiz o'z ma'ruzasida bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlikni kengaytirish uchun biznesning yangi tashkiliy-huquqiy shakli sifatida oilaviy biznesni qonuniy belgilab qo'yishga alohida e'tibor qaratdi. Mamlakatimizda biznesni tashkil qilishning ushbu shakli biznesni yuritishda yuzaga kelgan milliy an'analarimizga, xo'jalik yuritish faoliyatining mavjud holatiga to'la mos kelishi, bunday biznesni tashkil qilishning qonunchilik bazasi yaratilsa, oilaviy biznesning huquqiy kafolatlarini kuchaytirish, iqtisodiyotning turli sohalarida uning jadal va keng rivojlanishi va yangi ish o'rinlarining ochilishiga sharoit tug'ilishini ta'kidladi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, biznesni tashkil etish turlicha, masalan, yakka, xususiy, kooperativ (hamkorlikdagi) tadbirkorlik, sherikchilik, mas'uliyati cheklangan jamiyat, aksiyadorlik jamiyatlari, yirik xo'jalik birlashmalari, uyushmalari va boshqa shu kabi tashkiliy-huquqiy shakllarda amalga oshirilishi mumkin. Bunda ko'plab omillar, shart-sharoitlar bilan bir qatorda muayyan tashkiliy-huquqiy shaklning biznes tashabbuskorlari iqtisodiy manfaatlarini naqadar to'la va samarali ro'yobga chiqara olishi darajasi inobatga olinadi. Shunga ko'ra, ham nazariy, ham amaliy jihatdan biznesda eng mustahkam tashkiliy-huquqiy shakllardan biri – oilaviy biznes hisoblanadi. Chunki, oila – bu qondoshlik aloqalari orqali mustahkam bog'langan kishilar guruhidir. Oila a'zolari o'rtasida biznes uchun zarur bo'lgan eng muhim belgi va tamoyillar yaqqol mavjud: o'zaro ishonch, bir-birlarining aqliy va jismoniy salohiyat va imkoniyatlarini bilish, o'zaro hurmat, samarali mehnat taqsimotini amalga oshirish imkoniyatlari, qat'iy mas'uliyat va javobgarlik va h.k. Bu esa oilaviy biznesni shaklining iqtisodiy jihatdan samarali va istiqbolli ekanligini namoyon etadi.

2.2. Qashqadaryo viloyatida aholi bandligini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning o'rni

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo'shma majlisidagi "Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" mavzusidagi ma'ruzasi.

Qashqadaryo viloyatida 2011yilgi iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor vazifalarini amalga oshirish natijasida iqtisodiy o'sishning barqaror yuqori sur'atlari va iqtisodiyotning makroiqtisodiy muvozanatliligi ta'minlandi.

Yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'ati 2011 yilda 6,3 foizni tashkil qildi, sanoatda ishlab chiqarish sur'atlari - 5,2 foizga, qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish - 2,5 foizga, chakana tovar aylanmasi - 28,1 foizga, aholiga pulli xizmatlar ko'rsatish - 11,5 foizga o'sdi. Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 20,6 foizga ko'paydi. Mahalliy budjet harajatlarining 76 foizi ijtimoiy sohani va aholini qo'llab-quvvatlashni moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Yalpi hududiy mahsulot tarkibida sanoat ulushi 41,4 foizni, qishloq xo'jaligi 18,2 foizni, qurilish ishlari 7 foizni, transport va aloqa 6,4 foizni, savdo va umumiy ovqatlanish 6,1 foizni, soliqlar 8,4 foizni va boshqalar 12,5 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yalpi hududiy mahsulot tarkibida kichik biznes korxonalarining ulushi 56,2 foizni (2010 yilda 55 foiz), jami xizmatlar ulushi 25 foizni (2010 yilda 21,3 foiz) tashkil etdi.

Mahsulotlar eksporti hajmi 2011 yilda 29,9 foizga o'sdi, jami eksportning qariyb 34,9 foizi tayyor mahsulotlarga to'g'ri keldi. Tashqi savdo aylanmasining ijobiy saldosi 345,1 mln dollardan ortiq bo'ldi.

Banklarning aktivlari hisobot yilida 40,3 foizga o'sdi. Mablag'larni depozitlarga jalb etish hajmi 58 foizga, shu jumladan aholi depozitlari 20 foizga o'sdi. Tijorat banklari kredit qo'yilmalarining 56 foizdan ko'prog'ini uzoq muddatli investitsiya kreditlari tashkil qildi.

2011 yilda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashni jadallashtirishga yo'naltirilgan faol investitsiya siyosati amalga oshirildi. O'zlashtirilgan kapital mablag'lar hajmi 4,9 foizga o'sdi.

Moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan 1,9 trln so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilib, ushbu mablag'larning 39,7 mlrd so'mi respublika budjeti, 12,4 mlrd so'mi mahalliy budjet, 163,3 mlrd so'mi budjetdan tashqari fond mablag'lari, 798,3 mlrd so'mi korxonalarining o'z mablag'lari, 87,4 mlrd so'mi tijorat banklari kreditlari va 349,2 mlrd so'mi aholi mablag'larini tashkil etdi.

Real sektorga qariyb 0,8 trln so'mlik hajmida xorijiy investitsiyalar jalb etildi, ularning 346,9 mlrd so'mini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar tashkil qildi.

Ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, aholi daromadlarini va turmush darajasini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar izchil amalga oshirildi. O'tgan yilda ish haqi 20,2 foizga, budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalar esa 26,5 foizga o'sdi. Aholining real daromadlari bir yilda 23,1 foizga ko'paydi.

Bandlikning hududiy dasturlarini amalga oshirish natijasida 87927 ta yangi ish o'zni tashkil etildi, ularning 90 foizdan ko'prog'i qishloq joylarga to'g'ri keldi. 2011 yilda qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo'yicha 13 ta tumanning 25 ta massivida umumiy maydoni 123,4 ming kv.m bo'lgan 805 ta namunaviy uy-joylar, yakka tartibdagi uy-joy qurilishi uchun 349,2 mlrd so'm aholi mablag'i sarflanib 733,9 ming kv.m uy-joylar foydalanishga topshirildi.

Sanoatning 5 ta tarmog'i bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish prognozi ortig'i bilan bajarilishi hisobiga 12 mlrd.so'm ko'p mahsulot ishlab chiqarildi.

Jumladan, prognozga nisbatan kimyo sanoatida 2,9 martaga, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatida 65 foizga, qurilish materiallari sanoatida 25,4 foizga, un-yorma va kombikorma sanoatida 19,8 foizga, oziq-ovqat sanoatida 15,3 foizga o'sish ta'minlandi.

Shundan hududiy tasarrufdagi korxonalar tomonidan 358,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, 2010 yilga nisbatan 27,9 foizga o'sishga erishildi.

Viloyatda sanoatni rivojlantirish bo'yicha qo'yidagi ishlar amalga oshirildi:

1. 355 ta yangi kichik sanoat korxonalari ishga tushirildi (qurilish sanoatida 109 ta, oziq-ovqat sanoatida 143 ta, yengil sanoatda 38 ta va sanoatning boshqa sohalarida 65 ta);

2. 92 ta sanoat korxonalarida modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jixatdan qayta jihozlash ishlari amalga oshirildi;

3. Sanoatni rivojlantirish uchun tijorat banklari tomonidan 292 mlrd.so'mlik kredit mablag'lari ajratildi va bu o'tgan yilga nisbatan 2 marta ko'p demakdir.

4. 24 ta korxonaning bo'sh turgan ishlab chiqarish maydonlarida ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Masalan Shahrizabz tumanidagi, "Xujum" fabrikasining 1000 m2 bo'sh turgan maydoniga "Kotton Road" qo'shma korxonasi tomonidan tayyor yengil sanoat mahsulotlari (trikotaj mahsulotlar) ishlab chiqarish fabrikasi ishga tushirilishi natijasida 250 nafar ish o'zni tiklandi.

5. 12 turdagi yangi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. (mikrokalsit, lok-buyoq mahsulotlari, profnastil, energiya tejoychi lampochkalar, qadoqlangan choy, osh tuzi, qandolat mahsulotlari, gilamlar, erkaklar ko'ylagi-polo, bolalar shimi, bolalar ko'ylagi va poyafzallar)

Amalga oshirilgan ishlar evaziga qo'yidagi ijobiy natijalarga erishildi.

1. 29 ta mahsulot turini ishlab chiqarishda (kaliy o'g'iti 5,0 martaga, polietilen kuvurlar 2,3 martaga, marmar plitkalar 74 foizga, ip-gazmol 69,3 foizga, trikotaj buyumlari 34,3 foizga, noruda materiallar 32,7 foizga, alkogolli ichimliklar 26,1 foizga, pishiq g'isht 8,5 foizga, non va non mahsulotlari 8 foizga, qandolat mahsulotlari 2,6 foizga, polietilen granula 2 foizga, kolbasa mahsulotlari 2 foizga, meva-sabzavot konservalari 2 foizga) o'sishga erishildi.

Viloyatda 230 ta yangi xalq iste'moli mollari ishlab chiqaruvchi korxonalar ro'yxatidan o'tib, 203 tasi ishga tushirildi. Natijada korxonalar soni 637 tani (ozuq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi 165 ta va noozuq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi 38 ta) yetkazilib, yil boshiga nisbatan 32,5 foizga ortdi.

2011 yilda 52 ta xalq iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalarida modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jixozlash ishlari amalga oshirildi. Natijada iste'mol mollari ishlab chiqaruvchi 45 ta korxonaning quvvati oshirildi va 2,3 gektar bo'sh turgan yoki kam quvvat bilan foydalanayotgan ishlab chiqarish maydonlaridan samarali foydalanish yo'lga qo'yildi.

Iste'mol mollarning 22 ta turini ishlab chiqarishda jumladan, parfyumeriya-kosmetika buyumlari 2,5 martaga, tikuvchilik mahsulotlari 144,6 foizga, trikotaj buyumlar 134,3 foizga, alkogolli ichimliklar 126,1 foizga, paypoq mahsulotlari 118 foizga, makaron mahsulotlari 107,6 foizga, non va non mahsulotlari 108,2 foizga, kolbasa mahsulotlari 102,6 foizga, sariyog' 103,1 foizga, va qandolat mahsulotlari 101,9 foiz o'sishga erishildi.

7 ta 2500 tonna meva-sabzavotni qayta ishlaydigan korxonalar yangidan ishga tushirilib, ushbu korxonalar soni 21 taga yetdi. Natijada o'tgan davrda ishlab chiqarilgan meva-sabzavot mahsulotlarining 23,5 foizi (2010 yilda 21,2 foizi) qayta ishlanib, oldingi yilga nisbatan 2,3 bandga o'sdi.

2011 yilda 1587,0 mlrd.so'mlik yalpi qishloq xo'jalik mahsuloti yetishtirildi. Shundan 767,1 mlrd.so'mi o'simlikchilik, 819,9 mlrd so'mi chorvachilik mahsulotlarini tashkil etdi. 2010 yilning shu davriga nisbatan yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish solishtirma narxda 102,5 foizga o'sdi.

2011 yilda barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 850,7 ming tonna don yetishtirilib, shundan 7,0 ming tonnasi qishloq xo'jaligi korxonalarida, 723,0 ming tonnasi fermer xo'jaliklari va 121,6 ming tonnasi dehqon xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keldi. Yetishtirilgan donning 284,9 ming tonnasi davlatga sotildi.

Viloyat bo'yicha o'rtacha hosildorlik suvli maydonlarda 47,7 sentnerni tashkil etib, bu ko'rsatkich qishloq xo'jalik korxonalarida 26,7 sentnerga, fermer xo'jaliklarida 46,5 sentnerga va aholi xo'jaliklarida 60,2 sentnerga to'g'ri keldi.

2011 yilda 160,4 ming gektar maydonga urug' qadaliib, 403,7 ming tonna yalpi paxta xom ashyosi yetishtirilib davlatga sotildi. Viloyat bo'yicha har gektardan o'rtacha 25,1 sentnerdan hosil olindi.

Viloyatda xizmatlar sohasi va servisni rivojlantirish dasturiga muvofiq, 2011 yilda xizmatlar hajmi 116,7 foiz (1 trln. 904,9 mlrd. so'm) rejalashtirilgan bo'lib, amalda 118 foizga (1 trln. 969,4 mlrd. so'm) yoki 1,3 foizga (64,5 mlrd so'm) ko'p bo'ldi.

2011 yilda qabul qilingan dasturga asosan jami 1164 ta xizmat ko'rsatish shahobchalari tashkil etildi. Shundan 771 tasi chakana savdo va umumiy ovqatlanish, 4 tasi "Guzar" turidagi savdo va maishiy xizmat ko'rsatish majmualari, 389 tasi maishiy xizmat ko'rsatish shohobchalarini (58 ta tikuvchilik, 51 ta sartaroshxona, 8 ta maishiy texnikalarni ta'mirlash, 14 ta suratxona, 22 ta poyafzal ta'mirlash va 236 ta boshqa xizmatlar) tashkil etdi.

Xizmatlar sohasini rivojlantirishga tijorat banklari tomonidan 18,8 mlrd so'mga yaqin kredit mablag'lari ajratilib, shundan qishloq joylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish uchun 10,8 mlrd so'm kredit mablag'lari yunaltirildi. Shuningdek, "Mikrokreditbank" tomonidan 768,5 mln so'mlik imtiyozli kreditlar ajratildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasining 2010 yil 18-noyabrdagi 188-II-sonli va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining yalpi majlisida tasdiqlangan 2010 yil 3-dekabrda 119-II-sonli "O'zbekiston Respublikasida 2011 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturi to'g'risida"gi qaroriga asosan Xalq deputatlari viloyat Kengashi tomonidan 2011 yil uchun aholi bandligini ta'minlash va ish o'rinlarini tashkil etish dasturi ishlab chiqildi va tasdiqlandi.

Ushbu Dasturga asosan 2011 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturiga muvofiq viloyatda 86890 ta (shu jumladan 37887 ta xotin-qizlar uchun) ish o'rinlari tashkil etish belgilangan bo'lib, tegishli hokimliklar, boshqarmalar va korxonalar hamkorligida o'z vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida 87927 ta (shu jumladan xotin-qizlar uchun 38569 ta) yangi ish joylari tashkil etildi va dastur ko'rsatkichi 101,2 foizga bajarildi.

Yaratilgan ish o'rinlarining asosiy qismi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (35682 ta yoki 100,1% (shu jumladan xotin-qizlar uchun 15036 ta)), uy mehnatini barcha shakllarini tashkil etish (29469 ta yoki 100,5% (shu jumladan xotin-qizlar uchun 13988 ta)), yirik obyektlarni ishga tushirish va kengaytirish (5906 ta yoki 101,2% (shu jumladan xotin-qizlar uchun 2333 ta)) orqali ta'minlandi. Shu bilan birga, fermer va dehqon xo'jaliklarida parrandachilik, chorvachilik, baliqchilik va boshqa yo'nalishlarni rivojlantirish (9360 ta yoki 106,6% (shu jumladan xotin-qizlar uchun 4045 ta)), ishlab chiqarish, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini rivojlantirish (6216 ta yoki 103,0% (shu jumladan xotin-qizlar uchun 2631 ta)), ishlamasdan turgan korxonalar faoliyatini tiklash va rivojlantirish (1294 ta yoki 101,4% (shu jumladan xotin-qizlar uchun 536 ta)) bo'yicha amalga oshirilgan tadbirlar ish o'rinlarini ko'paytirishga asos bo'ldi.

Aholini ish bilan ta'minlash hududiy dasturining ijrosi bo'yicha – 2011 yilda tuman (shahar) bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlariga ish so'rab murojaat etgan 56419 nafar fuqaro (shu jumladan 21976 nafar xotin-qizlar) ro'yxatga olinib,

shundan 50671 nafari (shu jumladan 19502 nafar xotin-qizlar) ishga joylashtirildi.

Shu bilan birga, 5901 nafar fuqaro (shundan 3085 nafari xotin-qizlar) ishsiz deb e'tirof etildi, ulardan 4504 nafari (shu jumladan 2262 nafar xotin-qizlar) jamoat ishlariga jalb qilindi, 1261 nafari (shu jumladan 742 nafar xotin-qizlar) kayta kasbga o'qitishga yo'naltirildi, 270 nafariga esa (shu jumladan 138 nafar xotin-qizlar) ishsizlik nafaqasi tayinlandi.

Shahar va tuman Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari tomonidan korxonalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda 2011 yilning yanvar-dekabr oylarida 82 marotaba "Bo'sh ish o'rinlari" yarmarkalari o'tkazildi. Tashkil etilgan yarmarkalarda 3262 ta korxonalar, tashkilot va muassasalar o'zlarining 18963 ta bo'sh ish o'rinlari bilan qatnashdilar. Ushbu yarmarkalar orqali 6810 nafar (shu jumladan 2769 nafar xotin-qizlar) fuqarolar ishga joylashtirildi.

Viloyat, shahar, tuman hokimliklari, barcha mutasaddi tashkilot, korxonalar va boshqa xujalik yurituvchi subyektlar tomonidan hamkorlikda belgilangan kompleks choralar - tadbirlar natijasida "2011 yil - Kichik biznes va xususiy tadbirkorlar yili" Davlat dasturining ijrosini ta'minlash, aholi bandligi va daromadini oshirish hamda ehtiyojmand oilalarni qo'llab - quvvatlash buyicha amalga oshirilgan ishlar viloyatda siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda o'zining ijobiy samarasini bermokda.

Xalqimizning asosiy daromad manbaini tashkil etadigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi naqadar muhim ekanligi uchun Muhtaram Prezidentimiz tomonidan 2011 yilni "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb atashlari zamirida katta ma'no bor.

2011 yilda viloyatning tijorat banklari tomonidan 8137 ta kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga 217 mlrd so'm miqdorida kredit mablag'lari ajratilib, bu ko'rsatkich 2010 yilga nisbatan 71 mlrd so'mga ko'p bo'ldi.

Har bir ishimizning natijasi sifatida namoyon bo'ladigan muhim masala - yangi ish o'rinlari yaratish, Bandlik dasturi doirasida oldimizga qo'yilgan vazifalarni bajarishdir. Bu ijtimoiy masala - yosh unib o'sib kelayotgan avlodlarimizni farovon hayot uchun intilishiga, yomon illatlardan yiroq bo'lishiga xizmat qiladi. Maktab va kollejlarni bitirayotgan yoshlarni kasb-hunarga o'rgatish hamda ish bilan ta'minlash eng muhim masaladir.

2011 yilning boshida ishlab chiqilgan bandlik Dasturiga muvofiq viloyatda barcha yo'nalishlar bo'yicha yangi ish o'rinlari tashkil etish ko'rsatkichlari bajarilgan bo'lsada, Xususan:

-yangi ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish hisobidan Dehqonobodda 81,2 foizga va Muborakda 43,6 foizga, kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish yo'nalishida Dehqonobod tumanida 96,5 foizga, yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish yo'nalishida Qarshi tumanida 94 foizga bajarildi.

Muhtaram Prezidentimizning ma'ruzasida maktab o'quvchilarini kasb-hunar kollejlari qamrab olish va kollejlarda bitiruvchilarini to'liq ishga joylashtirish, kasbga yo'naltirish masalasiga alohida e'tibor qaratildi.

2012 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, Qonunchilik palatasi tomonidan tasdiqlangan parametrlarga binoan viloyatda 88335 ta yangi ish o'rinlari yaratish yuzasidan qaror qabul qilindi.

Muhtaram yurtboshimizning 2011 yil 30 noyabr kuni Xalq deputatlari Qashqadaryo viloyati Kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi ma'ruzasida belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, 2011 yilning dekabr va 2012 yilning yanvar oyida shahar va tumanlar hokimliklari bilan fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari tomonidan aholining doimiy ish bilan ta'minlanganlik darajasi o'rganib chiqildi.

Tahlillarga ko'ra: Mehnat bozoriga 2012 yil davomida 119,2 ming nafar fuqaro doimiy ish qidiruvchi sifatida chiqishi kutilmoqda.

Ulardan 51 ming nafari o'qishni bitiruvchi yoshlar, (mehnat bozoriga chiquvchilarning 43 foizi), 68,2 ming nafari ishga joylashishga muhtojlar va tashqi mehnat migratsiyasidan qaytganlar tashkil etadi.

Viloyatda har bir fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va aholi punktlaridagi mavjud imkoniyatlar, 2012 yilga mo'ljallanib qabul qilingan Davlat va hududiy dasturlarga kiritilgan obyektlarni ishga tushirishini ta'minlansa, 113,2 mingta (asosiy 88,3 mingta, qo'shimcha 25 mingta yaqin) yangi ish joylari yaratiladi.

Ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, aholi daromadlarini va turmush darajasini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar izchil amalga oshirildi. O'tgan yilda ish haqi 20,2 foizga, budjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va stipendiyalar esa 26,5 foizga o'sdi. Aholining real daromadlari bir yilda 23,1 foizga ko'paydi.

Bandlikning hududiy dasturlarini amalga oshirish natijasida 87927 ta yangi ish o'rni tashkil etildi, ularning 90 foizdan ko'prog'i qishloq joylarga to'g'ri keldi. 2011 yilda qishloq joylarida namunaviy loyihalar bo'yicha 13 ta tumanning 25 ta massivida umumiy maydoni 123,4 ming kv.m bo'lgan 805 ta namunaviy uy-joylar, 349,2 mlrd so'm aholi mablag'lari sarflanib 733,9 ming kv.m. yakka tartibdagi uy-joylar foydalanishga topshirildi.

III bob. AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISH VA HAYOT SIFATINI YANADA YUKSALTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

3.1. Ish bilan bandlikni ta‘minlash orqali aholi daromadlarini oshirish va hayot sifatini yuksaltirish masalalarini hal etish yo‘llari

Mamlakatimiz iqtisodiyotini isloh qilish va yurtimizda ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirish asosida chuqur tanazzuldan xalos bo‘lib, barqaror taraqqiyot va aholi turmush farovonligiga erishishga qaratilgan tub o‘zgartirishlar siyosatining strategik maqsadlari I.A.Karimov tomonidan quyidagicha izohlab berildi:

- ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma-bosqich shakllantirish, qudratli va tinimsiz rivojlanib boradigan, kishilar hayoti va faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni ta‘minlaydigan iqtisodiy tizimni barpo etish;
- ko‘p ukladli iqtisodiyotni yaratish, insonning mulkdan mahrum bo‘lishiga barham berish, tashabbuskorlik va uddaburonlikni butun choralar bilan rivojlantirish negizi bo‘lgan xususiy mulkning davlat tomonidan himoya qilinishini ta‘minlash;
- korxonalar va fuqarolarga keng iqtisodiy erkinliklar berish, ularning xo‘jalik faoliyatiga davlatning bevosita aralashuvidan voz kechish, iqtisodiyotni boshqarishning ma‘muriy-buyruqbozlik usullarini bartaraf etish, iqtisodiy omillar va rag‘batlantirish vositalaridan keng foydalanish;
- iqtisodiyotda moddiy, tabiiy va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ta‘minlaydigan chuqur tarkibiy o‘zgarishlar qilish, raqobatdosh mahsulotlar ishlab chiqarish, jahon iqtisodiy tizimiga qo‘shilib borish;
- kishilarda yangicha iqtisodiy fikrlashni shakllantirish, ularning dunyoqarashini o‘zgartirish, har bir kishiga o‘z mehnatini sarflash sohasi va shakllarini mustaqil belgilash imkonini berish¹.

Aholining har bir a‘zosi turmush sharoitlarini oshirish, bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish, salomatligini mustahkamlash, ishchi kuchi sifatida ijtimoiy foydali mehnatda ishtirok etish salohiyatini yuksaltirish davlatimiz ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Ana shu ma‘noda aholi muhofazasini ta‘minlashdagi birinchi va asosiy vazifa ham insonni kamol toptirish, uning oila va jamiyatdagi o‘rni hamda nufuzini ko‘tarish bilan bog‘liq. Binobarin, jamiyatning insonparvarligi mamlakat iqtisodiy salohiyatining qanchalik yuksakligi bilangina emas, balki bu salohiyat har bir kishining farovon yashashi va har tomonlama rivojlanishi uchun yo‘naltirilgani bilan ham baholanadi.

Ta‘kidlash joizki, mamlakatimizda aholini, ayniqsa kam ta‘minlangan aholi qatlamini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash uchun har yili davlat budjetidan muayyan miqdorda mablag‘

¹ Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. –T., “O‘zbekiston”, 1995, 18-bet.

ajratilmoqda. Bunday yordam o'tish davrida ham, inqiroz sharoitida ham aholining iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynadi.

Ma'lumki, jamiyat taraqqiyotida aholining muhtoj qatlamlarini sotsial muhofaza qilish nafaqat ijtimoiy, ayni vaqtda siyosiy ahamiyatga egadir. Chunki jamiyatning o'zagini tashkil etuvchi inson uning yuksalish darajasi, haqiqiy qiyofasini belgilaydi. Shu boisdan, aholining mazkur qatlamlarining ijtimoiy-iqtisodiy va demografik holati miqdoriy o'zgarishlarini, ularning daromadlari va xarajatlarining shakllanish xususiyatlarini, tarkibini o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida aholi daromadlari tarkibida qator o'zgarishlar sodir bo'ldi:

birinchidan, daromad shakllari o'zgardi, ya'ni uning an'anaviy turlari (ish haqi, pensiya, nafaqa, stipendiya) qatoriga mutlaqo yangilari - tadbirkorlik faoliyatidan, mulkdan, ko'chmas mulkdan, qimmatli qog'ozlardan, chet el valyutasidan keladigan daromadlar qo'shildi;

ikkinchidan, daromadlarning tarkibiy qismlari miqdor va sifat jihatidan o'zgardi, bu borada fuqaro ixtiyoridagi haqiqiy daromadlar, to'planish va ajralish koeffitsiyenti, daromad tanqisligi, tirikchilik minimumi, qashshoqlik darajasi, oila pul daromadlarining xarid qobiliyati kabi tushuncha va kategoriyalar paydo bo'ldi;

uchinchidan, daromadlardan foydalanishning yangi yo'nalishlari paydo bo'ldi: majburiy to'lovlar va badallar, chet el valyutasi, qimmatli qog'ozlar va shaxsiy mulkni sotib olish uchun xarajatlar, tijorat banklariga qo'yilmalar shular jumlasidandir.

Ta'kidlash joizki, aholi daromadlarining darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, uning zaruriy ehtiyojini qondirish, salomatligini saqlash, dam olishini tashkil etish, ma'lumot olishi, bo'sh vaqtlarini madaniy tarzda o'tkazishi bo'yicha imkoniyatlari shunchalik ko'p bo'ladi. Mamlakatimizda aholi daromadlarining shakllanishi o'ziga xos xususiyatga ega.

Kichik bizesda tadbirkorlik faolligini oshirish uchun quyidagi umumiy sharoitlar ta'minlashi zarur:

- milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash negizida uni barqaror rivojlanishini ta'minlash;
- iqtisodiyotda raqobat muhitini shakllanishi ta'minlash;
- kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab – quvvatlash tizimini, uning mexanizmlarini takomillashtirish asosida rivojlantirib borish;
- kichik biznesga xizmat ko'rsatuvchi inftruzulmalarni samarali harakat qilishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes faoliyatini oshirishning asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- kichik biznesni huquqiy-meyoriy va tashkiliy asoslarini iqtisodiyotda turli omillar ta'sirida ruy berayotgan o'zgarishlarga mos ravishda uzluksiz takomillashtirib borish;
- davlat tomonidan kichik biznes va huquqiy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlash mexanizmlarini samaradorligini oshirish, bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasidagi yangi mexanizmlarni mavjud sharoitlarga moslashtirgan holda amaliyotga qo'llash;
- kichik biznesni innovatsiya negizida rivojlanishini ta'minlash borasida chora – tadbirlarni ishlab chiqish;
- kichik biznesni moliyaviy jihatdan ta'minlash mavjud mexanizmlarni samaradorligi oshirish va moliyalashtirishning yangi manbalarini harakatga keltirish negizida qulay investitsiya muhitini yaratish;
- kichik biznesda ishlab chiqarishni tashkil etishni moddiy ta'minotini takomillashtirish;
- kichik biznesni tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish;
- kichik biznes saohasi uchun malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash;
- kichik biznesda kooperatsiyani chuqurlashtirish.

Kichik biznesni ushbu yo'nalishlarda olib boriladigan chora tadbirlarni ishlab chiqishda kichik biznesni rivojlantirish borasida xorijiy tajribani o'rganish va uni mamakatimiz sharoitlariga tatbiq etish muhimdir.

Xususan, statistik ma'lumotlarga ko'ra Italiyada yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishi 3-5 foizni tashkil etadi va ishlab chiqarish ko'rsatkichlari bo'yicha AQSH, Yaponiya, Germaniya va Fransiyadan keyin 5-o'rini egallaydi. Bu davlatda kichik biznesning o'ziga xos xususiyati shundaki, yirik firmalarda ishlash bilan birga o'rindoshlik bo'yicha kichik va hunarmandlik korxonalarida ham mehnat qilish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Shuningdek, ishlab chiqarish tuzilmasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri kooperativ (shirkat) sektoridir. Kooperatsiya shakli mamlakat tashqarisida «sanoatlashtirishning italyan modeli»dir. Bunday sanoat okruglarining samaradorligi shundaki, ular mahalliy imkoniyatlardan samarali foydalana oladilar. Buning natijasida korxonalar bir qancha imkoniyatlarga ega bo'ladi, jumladan:

- korxonalararo munosabatlar moslashuvchanligi yuzaga keladi;
- korxonalarga tashkilot, uyushmalar va institutlar tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarga oid ma'lumotlar olish imkonini beradigan aniq axborot tizimi yuzaga keladi;
- milliy mahsulotni tashqi bozorlarga olib chiqishda kichik korxonalar yetakchi mavqega ega bo'ladi;
- tarmoq usulida tashkil etilgan kichik ishlab chiqarish kooperativlarida bandlik yuqori darajada bo'ladi.

Iqtisodchi olimlar tadqiqotlariga ko'ra Italiya iqtisodiyotida turli sohalarda faoliyat yurituvchi korxonalarni texnologik jihatdan birlashtirish tashkiliy shakli «konstellyatsiya» (yulduzlar turkumi) ahamiyati alohida e'tirof etiladi. Bunda bir-biriga bog'liq bo'lgan, murakkab tayyor mahsulotni ishlab chiqarishda cheklangan miqdordagi korxonalar birlashib faoliyat yuritadi. Bunday tashkiliy shaklda birlashgan korxonalarining biri mahsulot tayyorlash jarayonini bajarsa, ayrimlari texnologik jarayon uchun mas'ul bo'ladigan, ba'zilar esa savdo bilan shug'ullanadilar. Natijada nafaqat mahsulot ishlab chiqarish va sotish muammosi hal bo'ladi, shuningdek, ishlab chiqarish ko'lami ham kengayadi. Bunday jarayonda yetakchilikni konstellyatsiyada oxirgi bosqichdagi ishlarni bajaradigan korxonalar amalga oshiradi. Ular boshqa firmalardan barcha kerakli butlovchi qismlarni sotib oladi va turli ishlar bo'yicha buyurtmalar beradi.

Demak, korxonalaridagi faoliyatning muvofiqlanishuvi yuzaga keladi. Turli konstellyatsiyalarda hamkorlik qilish, bozorda ma'lum bir mahsulot turiga bo'lgan talabning kengaytirilishi va erkin raqobat muhiti yaratiladi, shu bilan birga mahsulotning tannarxi va uning narxi pasayishiga olib keladi.

Yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish borasida mamlakatimizdagi iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlarda chuqur bilimli, yuksak saviyali, yangicha fikrlaydigan yoshlarning ishtirok etishini ta'minlash barchamizning birinchi navbatdagi vazifamiz hisoblanadi. Chunki:

1) bugungi kunda O'zbekiston aholisining yarmidan ko'prog'ini 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi;

2) bugungi yoshlar – ertangi kunimizning, kelajagimizning bunyodkorlaridir;

3) bozor iqtisodiyotining asosini tashkil etuvchi tadbirkorlik faoliyati o'z mohiyatiga ko'ra tavakkalchilik, harakatchanlik, ishbilarmonlik kabi sifatlarni taqozo etadiki, bularning aksariyati ko'pincha yoshlarda mujassamlashgan bo'ladi;

4) inson mehnatining sermahsulligi darajasi, uning yaratuvchanlik qobiliyati yoshlik davrida nisbatan yuqori bo'ladi.

Jamiyatimizda ko'p ukladli iqtisodiyotning shakllanishi va xususiy tadbirkorlik sektorining vujudga kelishi yoshlarning erkin kasb tanlash, istagan faoliyat turi bilan shug'ullanishi uchun keng imkoniyat yaratib beradi. Ayniqsa, ularning iqtisodiyotdagi sog'lom raqobatning manbai sifatidagi kichik korxonalarni tashkil etishdagi roli bu borada ulkan salohiyat hisoblanadi.

Biroq, shuni ta'kidlash joizki, ko'pchilik yoshlarimizning iqtisodiy faollik, tadbirkorlikni amalga oshirish borasidagi huquqiy va iqtisodiy bilimlari yetarli bo'lmayapti. Ba'zida bu faoliyatga intilish bo'lgani bilan, ma'lum maslahatlar, yo'l-yo'riq va moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida taqchilliklar sezilmoqda. Shunga ko'ra, fikrimizcha, mamlakatimizdagi

yoshlarning iqtisodiy faolligini yanada kuchaytirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish juda muhim hisoblanadi:

1. Maktablar, oʻrta-maxsus bilim yurtlari hamda oliy oʻquv yurtlarida iqtisodiy va huquqiy taʼlim berishni yanada kuchaytirish.

2. Oliy va oʻrta maxsus oʻquv yurtlarida yoshlarning ijodiy markazlari, konstruktorlik va texnologik byurolari, ilmiy gʻoyalarning amaliy tatbiqini yoʻlga qoʻyuvchi boʻlinmalarni tashkil etish.

3. Respublikadagi yoshlar bilan shugʻullanuvchi muassasalar, jamoat tashkilotlari, huquq-tartibot organlarining oʻz maqsad yoʻnalishidan kelib chiqqan holda faoliyatlarini jonlantirish.

4. Mamlakatimizdagi korxonalarining oʻquv yurtlaridagi boʻlgʻusi mutaxassislar bilan oʻzaro aloqasini yoʻlga qoʻyish.

5. Korxonalarda yoshlarning oʻz ijodiy va ichki imkoniyatlarini toʻliq namoyish eta olishlari, moddiy, madaniy va maishiy ehtiyojlarini qondira olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish.

6. Respublika shahar va tumanlaridagi mehnat bilan bandlik xizmatlari faoliyatida yoshlarga alohida eʼtibor ajratish, oʻziga xos ijtimoiy guruh sifatidagi xususiyatlarini nazarda tutgan holda turli yoʻnalishdagi xizmatlarni tashkil etish.

Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan tadbirlarning amalga oshirilishi yoshlarning mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishdagi hissalarini yanada oshirishda, ularning milliy mafkura hamda umumxalq manfaatlarining faol kurashchisiga aylanishida muhim omil vazifasini bajaradi.

2012 yil 26 aprelda “Oilaviy tadbirkorlik toʻgʻrisida” Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni qabul qilindi va bu qonun bilan oilaviy tadbirkorlik sohasidagi munosabatlar tartibga solindi.

2011 yil 24 avgustda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun eng qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirishga doir qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-4354-sonli Farmoniga muvofiq hamda xususiy mulkchilikni rivojlantirish yoʻlida ortiqcha byurokratik toʻsiqlarni bartaraf etish hamda tadbirkorlik faoliyati koʻlamlarini kengaytirish, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish va mahsulotlarni eksportga yetkazib berishni koʻpaytirishda kichik biznes subyektlarining faol ishtirok etishlari uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish maqsadida 2011 yil 25 avgustda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “Byurokratik toʻsiqlarni bartaraf etish va tadbirkorlik faoliyati erkinligini yanada oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” gi “PQ-1604-sonli Qarori qabul qilindi.

2010 yil 28 iyulda “Barkamol avlod yili” Daslat dasturiga muvofiq hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni yanada ragʻbatlantirish, yoshlarni, avvalambor, kasb-hunar kollejlari, akademik litseylar va oliy taʼlim muassasalari bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga


keng jalb etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ta’lim muassasalarining bitiruvchilarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish boraisdagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-4232-sonli Farmoni qabul qilindi.

2012 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri mamlakatimizning o‘ziga xos xususiyatlari, avvalo, demografik jihatlariga ko‘ra, aholi bandligi masalalaridir.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan ma’qullangan 2012-yilda ish o‘rinlari yaratish va aholi bandligini ta’minlash dasturiga binoan 967 mingdan ortiq ish o‘rni yaratish, ularning qariyb 600 mingini qishloq joylarda tashkil etish ko‘zda tutilmoqda. Bunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish hisobidan 480 mingdan ziyod kishini ishga joylashtirish, birinchi navbatda, korxonalar bilan hamkorlikda mehnat shartnomalari asosida kasanachilikning turli shakllarini, shuningdek, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali 210 mingdan ortiq kishining bandligini ta’minlash rejalashtirilgan.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani, transport va kommunikatsiyalar qurilishini jadal rivojlantirish, aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarining ko‘lamini kengaytirish hisobidan 2012-yilda qariyb 75 mingta yangi ish o‘rni tashkil etish ko‘zda tutilmoqda.

Kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar bitiruvchilarini ishga joylashtirish masalasi jiddiy va doimiy e’tiborimiz markazidir. Bu yil yurtimizda 516 ming nafardan ziyod yigit-qiz kollej va litseylarni tamomlaydi. Ularning qayerga ishga joylashishi masalasini aniq belgilab olish, korxonalar bilan ishlab chiqarish amaliyotini o‘tash va undan so‘ng ishga qabul qilish bo‘yicha shartnomalarning o‘z vaqtida tuzilishini ta’minlash masalalari alohida nazoratga olingan. Oliy va o‘rta maxsus o‘quv yurtlari bitiruvchilari va qishloq yoshlarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etishning faol tadbirlarini amalga oshirish muhim hisoblanadi.



-chizma. Oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlari bitiruvchilari va qishloq yoshlarini tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish tadbirlarining tuzilishi

2012-yilni yurtimizda "Mustahkam oila yili" deb e'lon qilindi.

Yosh oilalarga g'amxo'rlikni kuchaytirish va ularga huquqiy va ijtimoiy muhofaza qilishni ta'minlash hamda sog'lom va mustahkam oilani barpo etish uchun shart-sharoitlar yaratish borasida quyidagi tadbirlar amalga oshirilmoqda:

- yosh oilalarga uy joy xarid qilish uchun kreditlar berish;
- 2010-2011 yillar davomida Toshkent shahar, Nukus shahri va viloyat markazlarida 32 ta xonadonlarni yosh oilalarga keyinchalik xarid qilish sharti bilan ijaraga berish;
- 42 ta baxt uylarini qurish va qayta ta'mirlash;
- respublikamizdagi barcha tuman va shaharlarda 10 ta kam ta'minlangan oilalarning to'yini o'tkazib berish;
- barcha tumanlardagi 50 ta kam ta'minlangan yosh oilalarga bittadan bepul qora mol ajratish;
- yosh va kam ta'minlangan oilalarga har oyda moddiy yordamlarni amalga oshirishda ko'maklashishlari nazarda tutilmoqda.

Jamiyatimizning asosiy bo'g'ini bo'lgan oila institutini yanada mustahkamlash va rivojlantirish, bugungi kunda yosh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tarish, bu borada mahallaning roli va ahamiyatini kuchaytirish, xotin-qizlar, opa-singillarimiz uchun yanada keng imkoniyatlar yaratish, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk va barkamol avlodni tarbiyalash kabi masalalar muhim maqsadlarimizdir. Pirovard natijada oila farovonligini va shu asosda butun xalqimiz farovonligini yanada oshirish haqida bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga tadrjijiy yo'l bilan izchil va bosqichma-bosqich o'tish, mamlakatda siyosiy va makroiqtisodiy barqarorlik, O'zbekiston uchun o'tish davri iqtisodiyoti qiyinchiliklarini boshidan kechirayotgan boshqa barcha sobiq Ittifoq davlatlaridan ko'ra ishlab chiqarishning halokatli tarzda orqaga ketishi oqibatlarini tezroq bartaraf etish va 90-yillarning

o'rtalaridayoq iqtisodiy o'sish hamda aholi turmush darajasini oshirishni qayta tiklash imkonini berdi.

Yirik ishlab chiqaruvchilarning barqaror faoliyat ko'rsatishi uchun qulay iqtisodiy sharoitlarning yaratilishi, hukumat tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ishchanlik muhitini kuchaytirish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan chora-tadbirlarning ko'rilishi iqtisodiyot tarmoqlarining jadal o'sishiga asos bo'ldi.

O'zbekistonda bosqichma-bosqich va ijtimoiy yo'naltirilgan tarzda amalga oshirilayotgan iqtisodiy o'zgarishlarning samarasi, avvalo aholi jon boshiga o'rtacha to'g'ri keladigan ko'rsatkichlar va xalq turmush darajasining muntazam oshib borayotganida yaqqol namoyon bo'lmoqda.

Aholi jon boshiga o'rtacha to'g'ri keladigan YAİM, xarid qobiliyati pariteti (XQP) asosida hisoblaganda, 1990 yilda 1328 dollarni, 2000 yilda 1431 dollarni, 2010 yilda esa 3271 dollarni tashkil etdi. Shunday qilib, O'zbekistonda o'tgan asrning 90-yillaridayoq bu muhim ko'rsatkich bo'yicha islohotlargacha bo'lgan darajadan ham yuqori natijaga erishildi. 2010 yilda esa bu boradagi o'sish 1990 yilga nisbatan 2,5 barobar oshdi.

O'zbekiston iqtisodiyotining samarali rivojlanishini yaqqol ifoda etadigan muhim sifat ko'rsatkichi, iqtisodiyotda band bo'lgan har bir kishiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot hajmida namoyon bo'lmokda. Agar 1990 yilda iqtisodiyotda band bo'lgan har bir kishiga ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulotning 3412 AQSH dollari hajmidagi qismi to'g'ri kelgan bo'lsa, 2010 yilda bu raqam o'rtacha 7940 AQSH dollari yoki 1990 yilga nisbatan 2,3 barobardan ziyodni tashkil etdi.

Sanoatning negizini tashkil etadigan tarmoqlarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash hamda ularning raqobatdoshligini tubdan oshirishga qaratilgan ustuvor ahamiyatga molik loyihalarning amalga oshirilishi mahsulot ishlab chiqarish hajmini jadal ko'paytirish uchun zarur sharoit yaratdi. Natijada, ushbu tarmoqda band bo'lgan har bir kishiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari 2010 yilda 1990 yilga nisbatan 4,5 barobar oshdi.

Mamlakatimiz va chet el investorlari uchun yaratilgan qulay investitsiya muhiti tufayli, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan investitsiya miqdori 1990 yildagi 40,8 dollardan 2010 yilda 344,1 dollarga yetishi ta'minlandi. Agar 1993 yilda jalb etilgan chet el investitsiyalarining aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori 0,05 dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda bu ko'rsatkich 100,1 dollarga yetdi.

Mehnatga haq to'lash tizimini takomillashtirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan, o'zaro chuqur bog'langan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi, yalpi ichki mahsulot, mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning yuqori sur'atlarda barqaror o'sib borishi, budget sohasi xodimlarining ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar miqdorining muntazam qayta ko'rib

chiqilishi, ta'lim, sog'liqni saqlash va ilm-fan sohalari xizmatchilarining mehnatini rag'batlantirish, aholi turmush darajasini tubdan yaxshilashga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar, ayniqsa oxirgi yillarda, xalqimizning hayot sifati izchil yuksalib borishini ta'minladi.

Yurtimizda kechayotgan o'zgarishlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul mablag'lari, o'rtacha nominal va real ish haqi miqdori belgilangan eng kam ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar ko'rsatkichlarini yaqqol namoyon etmoqda.

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan pul daromadlari, xarid kobilyati pariteti asosida hisoblaganda, 2010 yil oxirida 2016,8 dollarni tashkil etdi. O'rtacha oylik nominal ish haqi esa, xarid qobilyati pariteti asosida hisoblaganda, 2010 yilning dekabr oyida 1162,6 dollarga yetdi.

Mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosatning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, aholi daromadlari va hayot darajasini muntazam oshirib borish, xalqimizni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlar o'rtacha oylik ish haqi miqdorining sezilarli ravishda, ya'ni 2010 yilda 1990 yilga nisbatan AQSH dollari ekvivalentida 2,7 barobar, o'rtacha pensiya hajmining esa 5,9 barobar oshishini ta'minladi.

Pul daromadlarining oshishi va aniq yo'naltirilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar aholi barcha qatlamlarining o'rtacha daromadlarining izchil o'sib borishida muhim omil bo'ldi. Bunda aholining turli guruhlarida daromadlari darajasidagi tafovutni (differensiyalashuvni) aks ettiradigan Jini koeffitsiyenti 1990-2010 yillarda 0,40 dan 0,30 ga pasaydi, bu esa iqtisodiy jihatdan taraqqiy topgan davlatlardagi o'rtacha ko'rsatkichga mos keladi. Aholi farovonligi o'sishining muhim tarkibiy qismi xizmat ko'rsatish va xizmat turlariga nisbatan oshib borayotgan talabning ta'minlanishi bilan bog'liqdir. Xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturi ijrosi davrida - 2006-2010 yillarda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol hajmi 1,8 barobar ko'paydi.

2006-2010 yillarda xizmat bozori tarkibini takomillashtirish borasida qabul qilingan izchil chora-tadbirlar aholi jon boshiga o'rtacha to'g'ri keladigan bank, moliya va sug'urta xizmatining yangi istiqbolli turlari jadal rivojlanishini ta'minladi va ular ushbu davr mobaynida 3,0 barobar o'sdi.

Aholi to'lov qobilyatining ortishi ko'rsatilayotgan pulli xizmatlar hajmining aholi jon boshiga nisbatan 1992 yil bilan qiyoslanganda 2,2 barobar, maishiy xizmatlar bo'yicha esa 8,3 barobar o'sishini taqozo etdi. Shu davrda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan chakana tovar aylanmasi, birinchi navbatda, nooziq-ovqat mahsulotlari savdosining o'sishi hisobidan 4,3 barobar oshdi.

Mamlakatimizda 1990 yildan 2010 yilga qadar ish bilan band bo'lgan aholi soni 3,7 million nafarga oshdi va 2010 yilning oxirida 11,6 million kishini tashkil etdi. Yangi ish o'rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoklari tarkibini diversifikatsiya qilish, malakali

mutaxassislar tayyorlash va shuningdek, 12 yillik majburiy ta'lim tizimiga o'tish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar aholining bandlik darajasini yanada oshirish imkonini berdi. 2010 yil yakunlariga ko'ra, mamlakatimizda Xalqaro mehnat tashkiloti uslubi asosida aniqlangan ishsizlik darajasi maqbul darajada bo'lib, iqtisodiy faol aholining kariyb 5 foizini tashkil etadi.

Aholi bandligi tarkibida muhim ijobiy o'zgarishlar ta'minlandi. Agar mustaqillikning dastlabki yillarida ish bilan band bo'lganlarning 60 foizi davlat sektori hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2000 yilda bu ko'rsatkich 24 foizga tushdi. Bugungi kunda esa mazkur sektorda umumiy ish bilan band aholining 20 foizdan ko'prog'i mehnat qilmokda.

Bandlikning sohalar bo'yicha tarkibida ham ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda: kishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi soni sezilarli darajada kamaydi. Agar 1990 yillarning boshida mazkur sohada ishlovchilar soni jami ish bilan band bo'lganlarning 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 25 foizga tushdi. Xizmat ko'rsatish, transport va kurilish sohalarida esa ish bilan band bo'lganlar soni o'sib, 36 foizdan 52 foizga yetdi.

Bandlikni ta'minlashga qaratilgan hududiy dasturlarning amalga oshirilishi, tadbirkorlikni ko'llab-quvvatlash va rivojlantirish natijasida, faqat so'nggi 5 yilning o'zida iqtisodiyotning barcha tarmoklarida 3,8 millionta yangi ish o'rni yaratildi. Ularning 74 foizdan ziyodi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasiga to'g'ri keladi. Qayd etish joizki, hozirgi kunda yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi bandligini oshirish maqsadida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun har yili tijorat banklari tomonidan 1 trillion so'mdan ortiq miqdorda kredit mablag'lari berilmoqda.

Aholining bandlik darajasi va daromadlari, uning hayot darajasini oshirish, shuningdek, mehnat bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talabni yanada to'laroq qondirish bo'yicha yurtimiz hududlari va iqtisodiyot tarmoqlaridagi mavjud salohiyatdan samarali foydalanish maqsadida, 2009 yilda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining qarori bilan 2010 yilda ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturi ishlab chiqildi va kabul qilindi.

So'nggi yillarda kasanachilik va oilaviy tadbirkorlik kabi aholi bandligini ta'minlashning yangi shakllari faol rivojlandi. 2006-2010 yillarda mamlakatimiz korxonalari bilan fuqarolar o'rtasida tuzilgan kasanachilik va ijara shartnomalari asosida 674 mingta ish o'rni tashkil etildi. Bundan tashqari, aholining iqtisodiy faolligi oshishi, o'zini o'zi bandligini ta'minlashi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi natijasida milliy hunarmandlik va oilaviy tadbirkorlik sohalarida 302,1 mingta ish o'rni ochildi.

Dehqon va shaxsiy yordamchi xo'jaliklar bazasida chorvachilik va parrandachilikni rivojlantirish bo'yicha ko'rilgai chora-tadbirlar aholi bandligini ta'minlashga sezilarli hissa bo'lib qo'shildi. Xususan, kam ta'minlangan va ko'p bolali oilalarga bepul qoramol berilishi natijasida 1,4 million nafar qishloq aholisi dehqon xo'jaliklarida qoramollar boqish bilan

shug‘ullanish imkoniyatiga, ushbu faoliyat turi bilan shug‘ullangan davri pensiya tayinlash uchun mehnat stajiga kiritilishi huquqiga ega bo‘ldi.

Mamlakatimizning barcha tuman hamda shaharlarida ish bilan band bo‘lmagan aholiga ishga joylashish masalasida yordam beradigan maxsus markazlar tashkil etildi va samarali faoliyat ko‘rsatmoqda. So‘nggi 5 yil ichida ushbu markazlar tomonidan 2,4 million kishi bo‘sh va yangi o‘rinlarga ishga joylashtirildi, 96 ming nafardan ziyod aholi mehnat bozorida talab katta bo‘lgan kasb-hunarlariga o‘qitildi va malakasini oshirdi.

3.2. Yangi ish o‘rinlarini tashkil etish orqali aholi bandligini ta‘minlashning ustuvor yo‘nalishlari

Avval moliyaviy sohada boshlanib, keyinchalik iqtisodiy sohaga o‘tgan inqiroz, Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, pirovardida ijtimoiy sohaga ham o‘z ta‘sirini ko‘rsatdi, xususan, ishsizlik darajasining keskin oshib ketishiga olib keldi (1.1.2-rasm).

Rasmdan ko‘rinadiki, inqirozdan oldin aksariyat rivojlangan mamlakatlarda 4-5 foiz atrofida bo‘lgan ishsizlik darajasi 2009-2010 yillarda keskin ravishda oshib, 10 foizga yetdi. Bu boradagi muhim chora-tadbirlar natijasida 2011 yilda ishsizlikni ma‘lum darajada pasaytirishga erishilganiga qaramay, AQSH, Buyuk Britaniya va Germaniyada bu ko‘rsatkich hamon yuqori darajada qolmoqda.

Xalqaro mehnat tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, dunyodagi mehnatga layoqatli aholining har uchinchisi yo ishsiz, yoki qashshoqlikda hayot kechirmoqda. Bu holatdan chiqish uchun 600 millionta. ish o‘rni yaratishga qaratilgan global xatti-harakatlar yordam berishi mumkin.

“Hukumatlarning qattiq sa‘y-harakatlariga qaramasdan ish o‘rinlari bilan bog‘liq inqiroz pasaymayapti. Dunyodagi har uchta ishlovchidan bittasi, bizning hisob-kitoblarimizga ko‘ra bu 1,1 milliard. kishi – yo ishsiz, yoki qashshoqlikda yashamoqda, – deb ta‘kidladi Xalqaro mehnat tashkiloti bosh direktori Xuan Somaviya. – Real iqtisodiyotda ish o‘rinlarini yaratish asosiy ustuvor yo‘nalishga aylanishi lozim”.

“Agar o‘tgan yil bilan taqqoslanadigan bo‘lsa, prognoz yanada umidsiz tus oladi. Biz ishsizlikning ma‘lum darajada pasayishini kutgan edik. Biroq, 2012 yilda bunday holat ro‘y bermaydi. Iqtisodiy o‘shishning pasayishi sharoitida ishsizlikning yanada o‘shishi kuzatiladi”, – deb izohlaydi XMT bayonoti mualliflaridan biri Ekkexard Ernst.

XMT prognozlariga ko‘ra, 2012 yilda jahondagi ishsizlar soni 3 million kishiga ko‘payadi. Agar jahon iqtisodiyotining o‘shish sur‘atlari 2 foizdan past bo‘lsa, u holda mazkur raqam 4 million kishiga qadar yetishi mumkin. Aksincha, agar yevrohudud mamlakatlari qarz inqirozidan tezlik bilan chiqa olsa, bu raqam 1 million kishiga pasayishi mumkin.

O‘ziga munosib ish topa olmagan yoshlar soni jahon bo‘yicha 2011 yilda 74,8 million kishini tashkil etgan. Bu bir yil oldingi 77,6 million kishiga nisbatan oz, biroq, inqirozdan oldingi holatga nisbatan 4 million ko‘pdir. Aholining mazkur yosh guruhi (15-24 yosh) orasidagi ishsizlik darajasi umumiy ishsizlik ko‘rsatkichidan 3 barobar ortiq bo‘lib, 12,7 foizni tashkil etmoqda.

XMTning ma’lumotlariga ko‘ra, hozir dunyoda 200 million kishi ishsiz bo‘lib, yaqin o‘n yil davomida har yili 40 millionta qo‘shimcha ishchi o‘rni yaratish zarur bo‘ladi⁵.

Aholi bandligini ta’minlash jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi va u iqtisodiyotda alohida ahamiyatga ega. O‘zbekistonda aholini ish bilan ta’minlashni yanadayaxshilash va uning farovonligini oshirishning eng muhim yo‘nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko‘rsatish va kasanachilik sohalarini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag‘batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

-jadval

O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslari soni dinamikasi
(ming kishi hisobida)*

Худудлар	Йиллар					2011 йилда 2007 йилга nisbatan ўзгариш	
	2007	2008	2009	2010	2011	+, -	фоиз
Қорақалпоғистон Республикаси	883,5	904,4	931,4	938,0	970,2	86,7	109,8
<i>вилоятлар:</i>							
Андижон	1391,8	1433,5	1497,6	1536,0	1626,4	234,6	116,8
Бухоро	904,5	928,7	949,2	967,4	1013,4	108,9	112,0
Жиззах	582,3	601,1	622,2	636,1	675,2	92,9	115,9
Қашқадарё	1345,4	1395,8	1438,3	1481,7	1568,9	223,5	116,6
Навоий	501,6	509,8	527,3	532,1	537,1	35,5	107,0
Наманган	1207,0	1246,5	1288,2	1328,5	1432,8	225,8	118,7
Самарқанд	1617,0	1672,2	1725,8	1782,1	1900,2	283,2	117,5
Сирдарё	390,3	401,9	407,8	415,5	430,9	40,6	110,4
Сурхондарё	1057,7	1096,5	1133,5	1172,9	1246,5	188,8	117,8
Тошкент	1447,4	1477,9	1499,3	1518,2	1564,6	117,2	108,0
Фарғона	1617,5	1667,2	1720,1	1769,3	1897,1	279,6	117,2
Хоразм	823,3	847,7	874,1	892,8	922,4	99,1	112,0
Тошкент ш.	1446,9	1461,5	1508,8	1533,6	1524,2	77,3	105,3
Республика бўйича	15219,6	15644,9	16123,6	16504,2	17309,8	2090,2	113,7

* Jadval O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma’lumotlari asosida tuzilgan.

⁵ Спелова П. Очередь безработных не сокращается. - <http://www.vz.ru/economy>.

1. Bugungi kunda mamlakatimizda aholini ish bilan ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagilardan iborat:

2. Aholining ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish hamda ishsiz aholini yangi, mehnat bozorida raqobatdosh kasb-hunarlariga o'rgatish.

3. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ayniqsa tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiya masalalariga e'tiborni kuchaytirish. Bu yangi ish o'rinlari yaratish bilan bir qatorda ichki va tashqi iste'molga mo'ljallangan yangi mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni ham ko'zda tutadi.

4. Ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish, bunda eng avvalo ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish, global inqiroz sharoitida ustuvor chora-tadbirlarni belgilab olish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalaridan kelib chiqqan holda, aholini ish bilan ta'minlash uchun ajratilayotgan moliyaviy mablag'larni oqilona taqsimlash chora-tadbirlarini amalga oshirishni talab etadi.⁶

Demografik jarayonlarga bog'liq holda, yurtimizda mehnat resurslari soni yil sayin ortib bormoqda. 2007-2011 yillar davomida mehnat resurslari soni 2090,2 ming kishiga yoki 13,7 foizga ortgan. Bu davrda mehnat resurslari sonining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 2,6 foizni tashkil qilgan. Ko'rilayotgan davrda mehnat resurslari sonining o'sish sur'ati respublika hududlarida bir me'yorda kechmagan. Jumladan, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan barcha hududlarda (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri) esa past bo'lgan. 2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, mehnat resurslari jami aholining 59 foizini tashkil qilib, uning asosiy qismi (qariyb 60 foizi) Samarqand, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida to'plangan.

-jadval

O'zbekiston Respublikasida ish bilan band aholi soni dinamikasi
(ming kishi hisobida)*

Худудлар	Й и л л а р					2011 йилда 2007 йилга нисбатан ўзгариши	
	2007	2008	2009	2010	2011	+;-	фоиз
Қорақалпоғистон Республикаси	551,1	561,1	566,1	580,8	590,0	38,9	107,0
<i>вилоятлар:</i>							
Андижон	1014,8	1047,3	1063,0	1112,1	1144,8	130,0	112,8
Бухоро	708,0	729,1	748,5	768,1	784,7	76,7	110,8
Жиззах	350,9	360,6	396,6	381,6	392,4	41,5	111,8
Қашқадарё	877,9	908,7	934,9	971,7	1003,8	125,9	114,3
Навоий	389,9	396,7	404,6	408,0	413,4	23,5	106,0

⁶Зокирова Н., Абдурахмонов О. Инкироз: оқибатлар, бартараф этиш, меҳнат муаммолари ва янги марраларга чиқиш. – Т.: Fan va texnologiya, 2009. – 136-138-бетлар

Наманган	738,0	763,3	790,1	815,3	841,7	103,7	114,0
Самарқанд	1115,8	1152,0	1186,7	1229,9	1269,8	154,0	113,8
Сирдарё	296,1	304,1	318,9	320,0	327,5	31,4	110,6
Сурхондарё	696,7	722,5	744,6	784,5	817,8	121,1	117,3
Тошкент	1068,6	1097,5	1127,0	1155,4	1183,5	114,9	110,7
Фарғона	1241,3	1280,1	1318,0	1340,5	1367,6	126,3	110,2
Хоразм	553,6	571,1	583,0	606,7	625,2	72,6	112,9
Тошкент ш.	1132,4	1140,8	1145,8	1153,8	1156,7	24,3	102,1
Республика бўйича	10735,4	11035,4	11328,1	11628,4	11919,1	1183,7	111,0

* *Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

Yangi ish o'rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikatsiya qilish, malakali mutaxassislar tayyorlash va shuningdek, 12 yillik majburiy ta'lim tizimiga o'tish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar aholining bandlik darajasini yanada oshirish imkonini berdi.

2007-2010 yillar mobaynida ish bilan band bo'lgan aholi soni 10735,4 ming kishidan 11919,1 ming kishiga yoki 11,0 foizga ortgan. Tahlil qilinayotgan davrda ish bilan band bo'lgan aholi soni respublikaning barcha hududlarida ham ortgan. Ammo, tahlillar uning o'sish sur'ati bir me'yorda kechmaganini ko'rsatadi. Xususan, o'tgan besh yil davomida ish bilan band bo'lgan aholi sonining o'sish sur'ati Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan barcha hududlarda esa past bo'lgan.

Aholi bandligini ta'minlash va ish o'rinlari tashkil etish muammolarini izchil hal etishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida iqtisodiyotdagi band aholi soni 2,5 foizga o'sdi va deyarli 11,9 million kishiga yetdi, iqtisodiyotning nodavlat sektoridagi band bo'lgan kishilar ulushi 79,4 foizni, shu jumladan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda bandlar – 74,2 foizni tashkil etdi. Bandlikning eng yuqori o'sish sur'atlari qurilishda (105,2 foiz), uy-joy-kommunal xo'jaligida va aholiga maishiy xizmat ko'rsatishda (105,1 foiz), savdo va umumiy ovqatlanishda (105,0 foiz), transport va aloqada (104,4 foiz) qayd etildi.

-jadval

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarida, kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar sonidynamikasi(ming kishi hisobida)*

Худудлар	Иқтисодиёт тармоқларида иш билан банд аҳоли сони			Кичик корхоналар ва фермер хўжаликларида иш билан банд аҳоли сони		
	2007 й	2011 й	2011 йилда	2007 й	2011 й	2011 йилда

			2007 йилга нисбатан ўзгариши, фоиз			2007 йилга нисбатан ўзгариши, фоиз
Қорақалпоғистон Республикаси	145,9	160,1	109,7	104,1	109,7	105,3
<i>вилоятлар:</i>						
Андижон	176,4	207,5	117,6	197,3	209,7	106,2
Бухоро	161,5	165,6	102,5	140,8	144,0	102,2
Жиззах	68,2	80,6	118,1	84,7	100,8	119,0
Қашқадарё	201,5	231,4	114,8	149,3	172,6	115,6
Навоий	150,6	165,4	109,8	56,6	59,4	104,9
Наманган	160,5	171,8	107,0	148,9	142,6	95,7
Самарқанд	228,1	228,7	100,2	218,9	250,7	114,5
Сирдарё	58,6	68,7	117,2	72,6	93,9	129,3
Сурхондарё	140,3	162,8	116,0	175,4	193,6	110,3
Тошкент	256,4	274,4	107,0	191,1	206,4	108,0
Фарғона	266,8	299,8	112,3	222,0	286,8	129,1
Хоразм	118,6	125,2	105,5	161,2	146,7	91,0
Тошкент ш.	418,0	437,6	104,6	171,1	221,5	129,4
Республика бўйича	2551,7	2779,8	108,9	2094,3	2338,4	111,6

* *Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.*

Umuman olganda, respublika va uning alohida hududlari bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholi soni ortmoqda. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholi soni 2551,7 ming kishidan 2779,8 ming kishiga yoki 8,9 foizga o'sgan. Bunday tendensiya respublikaning barcha hududlarida ham kuzatilgan.

Aholi bandligi tarkibida ham muhim ijobiy o'zgarishlar ta'minlandi. Agar mustaqillikning dastlabki yillarida ish bilan band bo'lganlarning 60 foizi davlat sektori hissasiga to'g'ri kelgan bo'lsa, bugungi kunga kelib (2011 y) mazkur sektorda umumiy ish bilan band aholining 20 foizdan ko'prog'i mehnat qilmoqda.

Bandlikning sohalar bo'yicha tarkibida ham ijobiy tendensiyalar kuzatildi. Xususan, qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi soni sezilarli darajada kamaydi. Agar 1991 yilda mazkur sohada ishlovchilar soni jami ish bilan band bo'lganlarning 40 foizini tashkil etgan bo'lsa, bugungi kunda bu raqam 25 foizga tushdi. Shu bilan birga, xizmat ko'rsatish, transport va qurilish sohalarida ish bilan band bo'lganlar soni o'sib, 36 foizdan 52 foizga yetdi.

-jadval

O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyatida va dehqon xo'jaliklarida ish bilan band bo'lganlar sonidynamikasi (ming kishi hisobida)*

Худудлар	Юридик шахс мақомига эга бўлмаган, лицензияга эга тadbirkorликда банд бўлганлар сони			Деҳқон хўжаликларидида иш билан банд аҳоли сони		
	2007 й	2011 й	2011 йилда 2007 йилга	2007 й	2011 й	2011 йилда 2007 йилга

			нисбатан ўзгариши, фоиз			нисбатан ўзгариши, фоиз
Қорақалпоғистон Республикаси	4,6	29,8	647,8	103,9	96,7	93,0
Вилоятлар:						
Андижон	12,3	61,0	495,9	170,1	177,8	104,5
Бухоро	8,9	49,5	556,1	129,4	151,4	117,0
Жиззах	4,7	23,3	495,7	63,4	98,1	154,7
Қашқадарё	10,5	43,8	417,1	128,6	150,2	116,7
Навоий	5,7	25,8	452,6	49,4	60,8	123,0
Наманган	13,0	66,8	513,8	95,4	114,6	120,1
Самарқанд	12,5	65,0	520,0	148,3	188,8	127,3
Сирдарё	2,5	10,8	432,0	26,8	60,2	224,6
Сурхондарё	6,3	27,6	438,0	129,8	153,6	118,3
Тошкент	12,2	65,9	540,1	177,4	190,6	107,4
Фарғона	17,8	99,1	556,7	168,2	192,7	114,5
Хоразм	5,5	23,8	432,7	81,5	106,0	130,0
Тошкент ш.	24,2	105,9	437,6	0	6,2	-
Республика бўйича	140,8	698,4	496,0	1472,5	1745,0	118,5

Kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ish bilan band aholi soni ham yil sayin ortib, 2007 yildagi 2094,2 ming kishidan 2011 yilda 2338,4 ming kishiga yoki 11,6 foizga ko'paydi. Bu ko'rsatkichni respublika hududlari bo'yicha tahlil qilish uning bir me'yorda kechmaganini ko'rsatadi. Jumladan, o'tgan besh yil davomida kichik korxonalar va fermer xo'jaliklarida ish bilan band bo'lgan aholi sonining o'sish sur'ati Toshkent shahri, Farg'ona, Surxondaryo, Sirdaryo, Samarqand, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan hududlarda esa past bo'lgan. Shu bilan birga, tahlil qilinayotgan davrda mazkur sohada ish bilan band bo'lganlar soni Xorazm (9,0 foiz) va Namangan (4,3 foiz) viloyatida kamaygan. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish bozor iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan kichik mulkdorlar sinfini shakllantirishga, mamlakatimiz bozorini iste'mol tovarlari va turli xizmatlar bilan boyitish imkoniyatini yaratishga, har bir oila daromadini ko'paytirishda hamda yangi ish o'rinlarini yaratish evaziga ishsizlik masalasini hal etishga zamin yaratadi. Respublikada tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilayotgani bois bu sohada ish bilan band bo'lgan aholi soni yil sayin ortib bormoqda. 2007-2011 yillarda respublika bo'yicha yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan, lekin litsenziyaga ega tadbirkorlikda band bo'lganlar soni 140,8 ming kishidan 698,4 ming kishiga yoki 4,96 marta ko'paygan.

Bugungi kunda dehqon xo'jaliklarini tashkil etishda qator yutuqlarga erishilmoqda va ularni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

- xo'jalikni tashkil etishning ixchamligi va ularning bozor muhitiga tezda moslashuvchanligi;

- xo‘jalik a‘zolarining ma‘lum bir oilaga mansubligi;
- oila mablag‘lari hisobidan ishlab chiqarishni tashkil etish imkoniyatining mavjudligi;
- mehnatni tashkil qilish va xo‘jalikni boshqarishdagi qulayliklar.
- Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma‘lumotlariga qaraganda, dehqon xo‘jaliklarida ish bilan band bo‘lgan aholi soni 1472,5 ming kishidan 1745 ming kishiga yoki 18,5 foizga ortgan.

Shunday qilib, mamlakatda amalga oshirilayotgan oqilona iqtisodiy siyosat tufayli bandlikning kasanachilik, oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilik kabi aholining tadbirkorlik qobiliyati va bunyodkorlik mehnati salohiyatini namoyon qilishga ko‘maklashuvchi samarali shakllari rivojlandi.

- Davlat ish bilan ta‘minlashga muhtoj bo‘lgan aholiga quyidagilarni kafolatlaydi:
- ishsizlik nafaqasini to‘lash;
- mehnat organlarining yo‘llanmasi bo‘yicha kasbga tayyorlash, qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida stipendiya to‘lanishi hamda shu davrni umumiy mehnat stajiga qo‘shish;
- ishsiz shaxsga qaramog‘idagilarini hisobga olgan holda, moddiy yordam berish;
- haq to‘lanadigan jamoat ishlarida qatnashish imkoniyati;
- mehnat organlarining taklifiga binoan ishlash uchun ixtiyoriy ravishda boshqa yerga ko‘chish bilan bog‘liq xarajatlarini qoplash⁷.

Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, yurtimizda ish bilan ta‘minlashga muhtoj bo‘lgan aholi soni ortib bormoqda. 2007-2011 yillarda O‘zbekiston Respublikasida ish bilan ta‘minlashga muhtoj bo‘lgan aholi soni 563,8 ming kishidan 622,4 ming kishiga yoki 10,4 foizga ortgan. Ko‘rilayotgan davrda ish bilan ta‘minlashga muhtoj bo‘lgan aholi sonining o‘shish sur‘ati bir me‘yorda kechmagan. Xususan, 2007-2009 yillarda ish bilan ta‘minlashga muhtoj bo‘lgan aholi soni 563,8 ming kishidan 631,5 ming kishiga yoki 12 foizga ortgan bo‘lsa, 2010 yilda ish bilan ta‘minlashga muhtoj bo‘lgan aholi sonining kamayishi kuzatilib, 2011 yilda 2009 yilga nisbatan 1,5 foizga qisqargan.

-jadval

**O‘zbekiston Respublikasida ish bilan ta‘minlashga muhtoj bo‘lgan aholi soni dinamikasi
(ming kishi hisobida)***

Худудлар	Й и л л а р					2011 йилда 2007 йилга нисбатан ўзгариш	
	2007	2008	2009	2010	2011	+,-	фоиз
Қорақалпоғистон Республикаси	41,2	41,9	42,2	44,5	41,7	0,5	101,2
<i>вилоятлар:</i>							
Андижон	63,2	64,1	65,6	65,1	64,6	1,4	102,2

⁷ Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси.

Бухоро	33,4	33,6	40,9	40,0	40,3	6,9	120,6
Жиззах	15,4	15,5	21,8	22,0	21,5	6,1	139,6
Қашқадарё	47,9	47,9	57,0	56,6	56,2	8,3	117,3
Навоий	20,3	20,3	20,9	20,1	20,5	0,2	100,9
Наманган	46,7	46,7	49,3	48,3	48,5	1,8	103,8
Самарқанд	64,4	65,3	75,2	74,8	74,1	9,7	115,0
Сирдарё	12,8	12,8	14,8	14,4	14,6	1,8	114,0
Сурхондарё	35,3	35,4	47,0	46,1	46,3	11,0	131,6
Тошкент	44,9	44,9	47,9	47,4	47,3	2,4	105,3
Фарғона	71,6	72,6	72,5	77,1	71,4	-0,2	99,7
Хоразм	28,1	28,0	35,1	33,6	34,6	6,5	123,1
Тошкент ш.	36,7	38,6	41,2	38,0	40,6	3,9	110,6
Республика бўйича	563,8	567,7	631,5	628,2	622,4	58,6	110,4

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ma'lumotlari ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholining asosiy qismini mustaqil ish qidirayotganlar tashkil qilishini ko'rsatadi. Jumladan, 2007 yilda respublika bo'yicha jami ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholining 95,3 foizini mustaqil ish qidirayotganlar tashkil qilgan bo'lsa, 2011 yilda bu ko'rsatkich 97,7 foizga teng bo'lgan. Ko'rilayotgan davrda bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) markazlarida ro'yxatdan o'tgan ishsizlar ulushi mos ravishda 4,7 va 2,3 foizga teng bo'lgan.

Respublikada ish bilan ta'minlashga muhtoj bo'lgan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatining ortishi ishsizlik darajasining kamayishini ta'minladi



-расм. Ўзбекистон Республикасида аҳолининг ишсизлик даражаси, фоиз.⁸

2007-2011 yillarda yurtimizda aholining ishsizlik darajasi bir me'yorda bo'lgan, ya'ni 5 foizni tashkil qilgan. Biroq bu ko'rsatkichning yillar bo'yicha o'zgarishi uning bir me'yorda bo'lmaganini ko'rsatadi. Jumladan, 2007-2008 yillarda ishsizlik darajasi 0,1 bandga kamaygan,

⁸ Ўзбекистон Республикаси Меҳнат ва аҳолини ижтимоий муҳофаза қилиш вазирлиги маълумотлари.

2008-2009 yillarda 0,4 bandga ko‘paygan, 2009-2011 yillarda esa 5,3 foizdan 5 foizga tushgan yoki 0,3 bandga kamaygan.

Shunday qilib, ish izlab mehnat muassasalariga murojaat qilganlar, ish bilan ta‘minlanganlar soni yildan-yilga oshib, ishsizlar soni va darajasi pasayib borishi ko‘zga tashlanadi. Buning asosiy sababi:

iqtisodiy faol aholi va ish bilan band aholining o‘sib borishi;

mehnat resurslarining yuqori sur‘atlarda o‘sishi, mehnat muassasalari xizmatlarining yaxshilanishi va ularga ish izlab murojaat qilayotganlar sonining oshishi;

mehnat muassasalari taklif etayotgan ko‘plab bo‘sh ish o‘rinlarining mavjudligi, fuqarolarni ishga joylashtirish faoliyatining yaxshilanishi va buning natijasida ish izlab murojaat qilganlar aksariyat qismining ish bilan ta‘minlanishi.

O‘zbekiston Respublikasida Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) markazlariga ish so‘rab murojaat qilganlarni ishga joylashtirish masalasiga alohida e‘tibor qaratilgan. 2007-2011 yillarda Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlariga ish so‘rab murojaat qilganlar soni 18,6 foizga, ishga joylashtirilganlar soni esa 5,3 foizga ortgan. Shu o‘rinda aytish joizki, ish so‘rab murojaat qilganlarga nisbatan ishga joylashganlar ulushi 87,3 foizdan 90,1 foizga ko‘paygan.

Mehnat muassasalari tomonidan fuqarolarni ishga joylashtirish bilan birga, mehnat bozoridagi talab va taklifni muvofiqlashtirish, ishsiz fuqarolarni turli kasblarga tayyorlash, pul to‘lanadigan jamoat ishlarini tashkil etish, mehnat yarmarkalari uyushtirish, mehnat bozoridagi talabning va taklifni tadqiq qilish, bu bozordagi talabni o‘shirishga ko‘maklashish, hukumatning mehnat munosabatlaridagi ijtimoiy kafolatlarini amalga oshirish bo‘yicha ko‘p ishlar qilinmoqda.

2007-2011 yillar davomida respublika bo‘yicha haq to‘lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etgan kishilar soni 79,5 foizga ortgan. Tahlillar bu davrda Qoraqalpog‘iston Respublikasidan tashqari barcha hududlarda haq to‘lanadigan jamoat ishlarida ishtirok etgan kishilar sonining ortganini ko‘rsatadi.

Shu o‘rinda aytish joizki, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 19 iyuldagi “Haq to‘lanadigan jamoat ishlarini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 353-son qaroriga asosan, haq to‘lanadigan jamoat ishlari quyidagi maqsadlarda tashkil qilinadi:

- ish qidirayotgan shaxs sifatida mehnat organlarida ro‘yxatga olingan fuqarolarga ularning vaqtincha ish haqi (mehnat daromadi) olishi va ish qidirayotgan davrida ularni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, mehnat organlari tomonidan ishsiz deb e‘tirof etilgan fuqarolarni vaqtincha ish bilan ta‘minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

- birinchi marta ish qidirayotgan va kasbi (mutaxassisligi) bo'lmagan shaxslarni mehnat faoliyatiga jalb qilish;
- turli sabablarga ko'ra kasb faoliyatida ancha uzilishlar bo'lgan shaxslarni (ilgari bolalar tarbiyasi, bemorlar va oilaning keksa a'zolariga qarash bilan mashg'ul bo'lgan, jazoni o'tash muassasalaridan ozod qilinganlar va boshqalar) mehnatga qayta tiklash;
- iqtisodiyot va ijtimoiy sohaning ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan obyektlarini ishchi kuchi bilan ta'minlash.

2011 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining tasdiqlangan parametrlariga muvofiq, 956,2 mingta ish o'rni tashkil etilishi ko'zda tutilgan. Haqiqatda esa 970,9 mingta ish o'rni yaratildi yoki dastur ijrosi 1,5 foizga ortig'i bilan bajarildi.

Mamlakatimizda yangi ish o'rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar, mikrofirmalar tashkil etish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni, xizmat ko'rsatish va servis sohasini yanada rivojlantirish, pudrat asosidagi qurilish, shu jumladan, uy-joylarni ta'mirlash va rekonstruksiya qilish ishlari ko'lamini kengaytirish hisobidan yaratilmoqda.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining ma'lumotlariga ko'ra, 2011 yilda respublikada 950 mingta ortiq ish o'rni tashkil etilgan.

-jadval

O'zbekiston Respublikasida yaratilgan ish o'rinlari soni, birlik

T/p	Йўналишлар	Йиллар		
		2010	2011	2012 дастур
	Барча йўналишлар бўйича яратилган янги иш ўринлари, жами (иш ўрни)	950 001	956 247	967464
	шу жумладан:			
1.	Янги ишлаб чиқариш объектларини ишга тушириш, мавжуд корхоналарни кенгайтириш ва қувватларни янгилаш	56 316	57469	57874
2.	Кичик корхона ва микрофирмаларни ташкил қилиш	347 408	365888	365897
	шундан:			
2.1.	саноатда	52 882	54941	55921
2.2.	қурилиш-пудрат ишларини кенгайтириш, жумладан, уй- жой қурилиши ва таъмирлаш	43 632	43863	43988
3.	Якка тартибдаги тadbirkorликни ривожлантириш	129 177	111871	117180
4.	Уй меҳнатининг барча шаклларини ривожлантириш	207 972	216165	217188
4.1.	шу жумладан, корхоналар билан кооперацияда	62 518	55357	-

	меҳнат шартномалари асосида касаначилик			
5.	Фермер хўжалиklarини ривожлантириш (паррандачилик, чорвачилик, балиқчилик ва бошқалар)	127 732	122399	122737
6.	Ишлаб чиқариш ва ижтимоий инфратузилмани ривожлантириш	61 320	72850	72994
7.	Ишламасдан турган корхоналар фаолиятини тиклаш	8 889	9605	13594
8.	Бозор инфратузилмасини ривожлантириш	11 187	-	-

* *Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzildi.*

Ma'lumotlar yurtimizda tashkil etilgan ish o'rinlarining qariyb yarmi kichik korxonalar va mikrofirmalarni tashkil qilish, yakka tartibdagi tadbirkorlikni hamda uy mehnatining barcha shakllarini rivojlantirish hisobidan yaratilganidan dalolat beradi.

Shu o'rinda aytish joizki, 2011 yilda ish o'rinlari tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash dasturining quyidagi asosiy yo'nalishlari bo'yicha kompleks chora-tadbirlarning izchil amalga oshirilishi tasdiqlangan prognoz parametrlarni bajarishga imkon berdi:

a) 2011-2015 yillarda O'zbekiston Respublikasi sanoatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari to'g'risidagi dastur, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlashning tarmoq dasturlari, 2011 yilgi Investitsiya dasturi, 2011-2013 yillarda ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturi, ijtimoiy-iqtisodiy va industrial rivojlantirish hududiy dasturlari doirasida eng muhim investitsiya loyihalarini amalga oshirish natijasida 48,9 mingta ish o'ri tashkil etildi.

Tashkil etilgan korxonalar va ish o'rinlarining asosiy qismi yengil, to'qimachilik, avtomobil, kon-metallurgiya, neft va gaz hamda kimyo sanoati tarmoqlariga to'g'ri keldi. 2011 yilda mamlakat bo'yicha 828 ta ishlab chiqarish obyekti, shu jumladan oziq-ovqat sanoatda (279 ta), qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasida (234 ta), yengil sanoatda (201 ta), yog'ochni qayta ishlash sanoatida (36 ta), mashinasozlikda (12 ta), kimyo (8 ta), farmatsevtika (3 ta) sanoatida va boshqa sanoat tarmoqlarida (55 ta) ishga tushirildi.

b) «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» Davlat dasturi, kichik biznesni rivojlantirish hududiy dasturlari chora-tadbirlarini amalga oshirish, qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish, ayniqsa kichik biznes subyektlariga soliq imtiyozlari berish bo'yicha qonun hujjatlarini qabul qilish, kreditlashni va moddiy xomashyo resurslarini olish imkoniyatlarini kengaytirish hisobidan kichik biznesda (kichik korxonalar va mikrofirmalar) 296,1 mingta, xususiy tadbirkorlikda 89,7 mingta ish o'ri tashkil etildi.

Kredit bilan qo'llab-quvvatlashning kengaytirilishi tadbirkorlik subyektlarining ish o'rinlari tashkil etish bo'yicha moliyaviy imkoniyatlarini ancha kengaytirish imkonini berdi. Chunonchi, tijorat banklari tomonidan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga berilgan kreditlar

hajmi 3,1 trillion soʻmni, shu jumladan, imtiyozli mikro kreditlar 613,3 milliard soʻmni tashkil etdi, bu oʻtgan yilning shu davridagiga nisbatan 1,5 barobar koʻp. Bunda 20,9 milliard soʻmlik imtiyozli kreditlar mehnat resurslari ortiqcha boʻlgan hududlardagi tadbirkorlarga, 251,9 milliard soʻm xizmat koʻrsatish va servis sohasini rivojlantirishga, 20,3 milliard soʻm oʻzining tadbirkorlik ishini tashkil etish uchun kasb-hunar kollejlarining bitiruvchilariga berildi.

b) kasanachilik mehnatini rivojlantirish boʻyicha qator kattagina imtiyoz va preferensiyalar, shu jumladan, kasanachilarga buyurtmalarni, uskunalarni, xom ashyoni, asbob va jihozlarni imtiyozli ravishda berish shartlarini, kasanachining uydagi ishlab chiqarish bilan bogʻliq xarajatlarini qoplash tartibini, korxonalarni kasanachilarga toʻlanadigan mablagʻ miqdorida ish haqi jamgʻarmasidan yagona ijtimoiy toʻlovdan ozod etishni koʻzda tutadigan huquqiy va normativ baza yaratilgani kasanachilikning barcha turlarini rivojlantirish hisobidan 191,9 mingta ish oʻrni tashkil etish imkonini berdi.

Oʻtgan davrda kasanachilar bilan ishlab chiqarish va mehnat munosabatlariga sanoat, qurilish, transport, aloqa, xizmat koʻrsatish sohasidagi 5,4 mingdan ortiq korxonalar jalb etilgan boʻlib, ularda kasanachilar bilan kooperatsiya asosida mehnat shartnomalari boʻyicha 55,8 ming kishining bandligi taʼminlandi.

Oilaviy tadbirkorlik va hunarmandchilikni rivojlantirishni ragʻbatlantirish va qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari 136,1 mingta ish oʻrni tashkil etilishini taʼminlash imkonini berdi.

g) Qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish dasturini amalga oshirish, fermer va dehqon xoʻjaliklarini rivojlantirish 120,8 mingta ish oʻrni, shu jumladan, chorvachilik, parrandachilik va baliqchilikka ixtisoslashgan xoʻjaliklarda 35,4 mingta, bogʻdorchilikda va issiqxona xoʻjaliklarida 37,8 mingta ish oʻrni tashkil etilishini taʼminladi.

Fermer xoʻjaliklarida meva-sabzavot hamda goʻsht-sut mahsulotlarini qayta ishlash va saqlashni tashkil etish, 56,4 ming tonna sigʻimga ega boʻlgan 55 ta sovutish kamerasini qurish va rekonstruksiya qilish 19,7 ming kishini mehnat faoliyatiga jalb etish imkonini berdi.

Meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish boʻyicha ixtisoslashtirilgan dehqon xoʻjaliklari sonining koʻpayishi 27,9 mingta ish oʻrni tashkil etishga yordam berdi.

d) 2011-2015 yillarda infratuzilmani, transport va kommunikatsiya qurilishini rivojlantirishni jadallashtirish toʻgʻrisidagi dasturni, obodonlashtirish va infratuzilmani rivojlantirish hududiy dasturlarini amalga oshirish 59,7 mingta ish oʻrni yaratishga olib keldi. Shundan 20,2 mingta ish oʻrni avtomobil va temir yoʻl, gaz va suv quvurlarini oʻtkazish hamda rekonstruksiya qilish obyektlarida, kommunal xoʻjaligining boshqa obyektlarida, aholi punktlarini obodonlashtirish, shuningdek Oʻzbek milliy avtomagistrali yoʻl boʻyi infratuzilmasini va servis

obyektlarini rivojlantirish ishlari hisobidan tashkil etildi. Ijtimoiy va bozor infratuzilmasi obyektlarining qurilishi va ishga tushirilishi 39,5 mingta ish o'rnini yaratilishini ta'minladi.

ye) Ishlamayotgan korxonalarining, shu jumladan, tijorat banklari balanslariga olingan bankrot korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini tiklash 8,3 mingta ish o'rnini qayta tiklashga imkon berdi.

-jadval

O'zbekiston Respublikasi hududlarida yaratilgan ish o'rinlari soni dinamikasi (birlik)*

Худудлар	Й и л л а р				2011 йилда 2008 йилга nisbatan ўзгариш	
	2008	2009	2010	2011	+,-	фоиз
Қорақалпоғистон Республикаси	28602	48064	48118	48362	19760	169,1
<i>вилоятлар:</i>						
Андижон	55670	77889	77902	78292	22622	140,6
Бухоро	54266	72904	72998	73363	19097	135,2
Жиззах	29566	43297	43317	43515	13949	147,1
Қашқадарё	59191	85734	86444	86890	27699	146,8
Навоий	30139	39870	40321	40596	10457	134,7
Наманган	49672	70762	71039	71778	22106	144,5
Самарқанд	63570	91712	92020	92700	29130	145,8
Сурхондарё	44296	63686	63706	64644	20348	145,9
Сирдарё	28660	37899	37920	38623	9963	134,7
Тошкент	52719	85333	85500	86000	33281	163,2
Фарғона	63286	90050	91173	91246	27960	144,1
Хоразм	37110	59192	59182	59575	22465	160,5
Тошкент ш.	64159	74140	80361	80663	16504	125,7
Республика бўйича	660906	940532	950001	956247	295341	144,6

* Jadval O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Xususan, 2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, tijorat banklari balanslariga jami 163 ta bankrot korxonaga qabul qilingan bo'lib, ulardan 92 tasi yangi mulkdorlarga realizatsiya qilingan, 54 tasida ta'mirlash-tiklash ishlari davom etmoqda, 12 tasida esa modernizatsiya qilish va ishlab chiqarish faoliyatini qayta tiklash amalga oshirilmoqda. Bunda 54 ta korxonaga negizida birlashtirish va qayta tashkil etish yo'li bilan 45 ta yangi korxonaga tashkil etildi.

Respublika hududlarida ish o'rinlarini yaratishga alohida e'tibor qaratilib, ularning soni yil sayin ortib bormoqda (10.3.2-jadval).

Ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash hududiy dasturlarining amalga oshirilishi ish bilan band bo'lish ehtiyoji yuqori darajada bo'lgan hududlarda, chunonchi, Samarqand (78,3 ming), Farg'ona (77,8 ming), Andijon (75,2 ming), Qashqadaryo (72,6 ming),

Toshkent (70,4 ming), Buxoro (59,9 ming) va Namangan (59,4 ming) viloyatlarida ish o‘rinlarini ko‘paytirishga yordam berdi.

Mehnat resurslari ortiqcha bo‘lgan 32 ta tuman va shaharda aholi bandligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarga alohida e‘tibor qaratildi, ularda 118,3 mingta yoki tasdiqlangan parametrlarga nisbatan 4,2 foiz ko‘p ish o‘rni tashkil etildi.

Dasturni ro‘yobga chiqarish doirasida 2011 yilda bo‘sh turgan va yangi tashkil etilgan ish o‘rinlariga 487,3 ming kishi ishga joylashtirildi, ulardan 215,7 ming nafari ayollar, 347 ming nafari qishloq tumanlarida yashovchilardir. Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari tomonidan ishga joylashtirilganlarning ko‘pchiligini birinchi marta ish qidirayotganlar, shuningdek, o‘z xohishiga ko‘ra va korxonalar qayta tashkil qilinishi hamda tugatilishi munosabati bilan ishdan bo‘shaganlar - 241,9 ming kishi, kasbiy ma‘lumotga ega bo‘lgan shaxslar - 214,9 ming kishi, 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar - 262,1 ming kishi tashkil etadi.

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda hududiy bandlik dasturlarining amalga oshirilishi natijasida yaratilgan ish o‘rinlari soni ko‘paymoqda. Bu esa o‘z navbatida aholining ish bilan bandligini ta‘minlashga yordam beradi.

XULOSA

Har qanday demokratik davlatning rivojlanishdan asosiy maqsadi – insondir. Jamiyat taraqqiyoti esa nafaqat mamlakat iqtisodiy salohiyatining kattaligi bilan, balki bu salohiyat har bir insonning kamol topishi va uyg‘un rivojlanishiga qanchalik yo‘naltirilgani bilan ham o‘lchanadi.

Demokratik jamiyat qurishdan ko‘zlangan maqsad yurtimizda istiqomat qiladigan barcha insonlar uchun munosib hayot sharoiti yaratib berish, rivojlangan demokratik mamlakatlar kabi kafolatlangan yuksak turmush darajasi hamda erkinliklarni ta‘minlashdan iborat. Mazkur ezgu maqsadni amalga oshirish uchun birlamchi ahamiyat kasb etgan, ya‘ni ijtimoiy bozor iqtisodiyotini yaratishga yo‘naltirilgan iqtisodiy islohotlarga e‘tibor qaratildi.

Iqtisodiy islohotlar esa o‘z o‘rnida jamiyatimizning siyosiy, ijtimoiy, ma‘naviy hamda davlat qurilishi sohalaridagi tub islohotlar bilan chambarchas, uzviy bog‘liqlikda amalga oshirib kelinmoqda.

Mamlakatimizda qabul qilinayotgan dasturlarni amalga oshirishda sog‘liqni saqlash, ta‘lim, aholini ish bilan ta‘minlash, tadbirkorlikni va mahalliy infratuzilmani rivojlantirish, atrof-muhit holatini yaxshilash, tabiat va yer resurslaridan foydalanish samaradorligi bilan bog‘liq masalalar muhim ustuvor ahamiyatga ega. Bularning hammasi mohiyat e‘tibori bilan inson kamolotiga, uning ma‘naviy hamda moddiy talab-ehtiyojlarini ta‘minlash uchun har tomonlama qulay sharoitlar yaratishga qaratilgan Inson taraqqiyoti konsepsiyasiga batamom mos va muvofiqdir.

Inson taraqqiyoti konsepsiyasiga asosan aynan inson millatning boyligi hisoblanadi. Insonlarga jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojining quroli sifatida emas, balki bosh maqsadi deb qaralishi lozim. Har qanday taraqqiyotning pirovard maqsadi va muvaffaqiyat mezonini bo‘lgan inson uchun tanlovning kengayishi, o‘z erkinligini amalga oshirish, uzoq va sog‘lom turmush kechirish imkoni, bilim olish va munosib hayot darajasining yaratilishi jamiyat rivojida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bugungi kunda Inson taraqqiyoti konsepsiyasi istiqolning birinchi kunlaridan boshlab “Islohot islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning manfaatlari uchun” degan hayotiy qoida asosida islohot jarayonlarni amalga oshirayotgan mamlakatimizda barcha o‘zgarish va yangilanishlarning markazidagi ustuvor masalaga aylanmoqda. Bu haqda so‘z borganda, O‘zbekiston Konstitutsiyasida inson huquq va manfaatlari eng oliy qadriyat sifatida muhrlab qo‘yilganligini qayd etish o‘rinli bo‘ladi.

Chindan ham, iqtisodiy, siyosiy va huquqiy sohalaridagi barcha islohotlarimiz pirovard natijada odamlar farovonligini muttasil oshirib borishga, mamlakatimiz har bir fuqarosining kasbiy, intellektual va ma‘naviy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlarni, sof ekologik muhitni yaratishga qaratilgandir.

Jahon miqyosida moliyaviy-iqtisodiy inqiroz davom etayotgan bir sharoitda aholi farovonligini ta'minlash, ularning orzu-umidlari ro'yobga chiqishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, turmush darajasini ko'tarish, kam ta'minlangan aholi qatlamlarini ijtimoiy himoya qilish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Inqirozga qarshi choralar dasturi doirasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda tobora muhim o'rin tutayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish, rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratildi.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 2011 yilda 54 foizdan oshdi. Holbuki, 2000 yilda bu ko'rsatkich 31 foizni tashkil etgan edi. Bunday natija birinchi navbatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik davlat tomonidan doimiy qo'llab-quvvatlanayotganining samarasidir.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishning muhim omili sifatida amal qilmoqda.

Aholini ijtimoiy muhofaza qilish davlatning aholiga yaxshi hayot faoliyati uchun beradigan shart-sharoitlarini ta'minlaydigan bevosita maqsadli kafolatlar tizimidir. Boshqacha aytganda, ijtimoiy muhofaza tizimi bozor tizimi samaradorligining tor tasavvurlaridan emas, balki haqiqiy ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash masalalarini hal qilish maqsadidan kelib chiqib tashkil etilishi kerak. Shu bilan birga, ijtimoiy muhofaza o'zi amal qilib turgan ishlab chiqarish munosabatlari tizimidan, jahon iqtisodiyotining hozirgi holati imkoniyatlaridan keng foydalanadi va hozirgi zamon talablari asosida rivojlanib boradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishni ta'minlash borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar quyidagilardan iboratdir:

- joylardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining samarali faoliyatiga xalaqit berayotgan, to'sqinlik qilayotgan yoki kilishi mumkin bo'lgan muammolarni muntazam ravishda o'rganib borish va o'z vaqtida bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'rish;

- hududlardagi bo'sh yoki samarali foydalanilmayotgan bino va inshootlar to'g'risidagi aniq ma'lumotlarning qisqa muddatlarda olinishi hamda ularning kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilishi jarayonlarini samarali tashkil etish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish borasida har bir hududdagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va ulardan kelib chiqqan holda mavjud barcha imkoniyatlarni safarbar etish;

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish yo'lidagi har qanday byurokratik to'siqlarni bartaraf etish;

- hududlardagi kichik biznes subyektlarining energiya, gaz, suv va kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti va boshka shu kabi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishi jarayonlariga e'tibor qaratish hamda bu boradagi ilg'or tajribalarni qo'llash;

Mahallalarda oilaviy biznesni rivojlantirish bo'yicha mavjud imkoniyatlar va ularni ro'yobga chiqarish yo'llarini aniqlash, shu asosda oilaviy biznesni tashkil etishning namunaviy shakllarini tavsiya etish va qo'llab-quvvatlash;

- hududlarda faoliyat yuritayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining faoliyat yo'nalishlari jihatidan tarkibini takomillashtirish chora-tadbirlarini qo'llash, xususan, sanoat sohasida, yuqori texnologiyalarni talab etadigan zamonaviy ishlab chiqarish tarmoqlarini tashkil etishda ilg'or ilm-fan yutuqlariga asoslangan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirishning turli yo'l va choralarini izlab topish;

- hududlardagi eksportga mahsulot chiqaruvchi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga aniq va ta'sirchan yordam ko'rsatish orqali ularning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasidagi ishtirokini kengaytirish;

Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlab, ularning ichki va tashqi bozorda raqobatlasha oladigan, sifatli mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishni izchil yo'lga qo'ya oladigan mustahkam iqtisodiy sohaga aylanishini ta'minlash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2008.
2. Investitsiya faoliyati to‘g‘risida. – T.:”O‘zbekiston”, 2008
3. Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida. – T.: “Adolat”, 2004.
4. O‘zbekiston Respublikasi Yer Kodeksi. – T.: “Adolat”, 2004.
5. Qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlari) to‘g‘risida. – T.: “Adolat”, 2004.
6. Fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida. – T.: “Adolat”, 2004.
7. Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida. – T.: “Adolat”, 2004.
8. Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida. – T.: “Adolat”, 2003.
9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki to‘g‘risida. – T. “Adolat”, 2003.
10. Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida. – T.: “Adolat”, 2003.
11. Qimmatli qog‘ozlar bozorining amal qilishi to‘g‘risida. – T.: “Adolat”, 2003.
12. Erkin iqtisodiy hududlar to‘g‘risida. – T.: “Adolat”, 2003.
13. Kasaba uyushmalari, ularning huquq va kafolatlari to‘g‘risida. – T.: “Adolat”, 2002.
14. Mehnat muhofazasi to‘g‘risida. – T.: “Adolat”, 2002.
15. Birja va birja faoliyati to‘g‘risida. – T.: “Adolat”, 2001.
16. Raqobat va tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash to‘g‘risida. – T.: “Adolat”, 2001.
17. Chet el investitsiyalari to‘g‘risida” – T.: “Adolat”, 1998.
18. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – T.: “Adolat”, 2008.

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari:

19. 2012 yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalashlarga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasi. // Xalq so‘zi, 2012 yil 20 yanvar
20. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. - Toshkent, “O‘zbekiston” NMIU, 2011.
21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012-yil vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi” mavzusidagi ma‘ruzasi, “Xalq so‘zi” gazetasi, 2012 yil 20 yanvar.

22. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 18 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi “Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo‘lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir” mavzusidagi ma’ruzasi, “Xalq, so‘zi” gazetasi, 2011 yil 8 dekabr.
23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik Palatasi va Senatining 2010 yil 12 noyabrdagi qo‘shma majlisidagi “Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish Konsepsiyasi” mavzusidagi ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. Toshkent, 2010.
24. Karimov I.A. I.Karimov. Asosiy vazifamiz – vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. T. “O‘zbekiston”, 2010.
25. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: “O‘zbekiston”, 2009.
26. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – T.: “Ma’naviyat”, 2008.

III. Darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar:

27. Xodiyev B.Y., Qosimova M.S., Samadov A.N. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik. O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2010.
28. Shodmonov Sh.SH., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. O‘zbekiston respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. – T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2010.
29. Razzoqov A. H. Tashmatov, N.T.O‘rmonov. Iqtisodiy ta’limotlar tarixi. Oliy ta’lim muassasalarining talabalari uchun darslik. – T.: “Iqtisod-moliya” nashriyoti, 2007.
30. O‘lmasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2006.
31. Shodmonov Sh.SH, G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi (darslik). – T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2005.
32. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti. Darslik. T.:”Mehnat”, 2004.
33. Abdurahmonov Q.X. va boshqalar. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik. T.: “O‘qituvchi”, 2001.
34. Nosova S.S. Ekonomicheskaya teoriya. Eyelementarniy kurs: Ucheb.posob.M.:KNORUS, 2010.
35. Ekonomicheskaya teoriya. Ekspres-kurs.: ucheb.posob. pod red. Gryaznovoy A.G. i dr. M.:KNORUS, 2010.
36. Lapusta MG. Maloye predprinimatelstvo: Uchebnik. – M.: INFRA-M, 2008.

37. Simkina L.G. Ekonomicheskaya teoriya. 2-e izdanie. – SPB.: Piter, 2008.
38. Stankovskaya I.K., Strelets I.A., Ekonomicheskaya teoriya: uchebnik / I.A.Strelets. – 3-e izd., ispr. – M.: Eksmo, 2008.
39. Ekonomicheskaya teoriya / Pod red. A.I.Dobrinina, L.S.Tarasevicha, 3-e izd.- SPb.: Izd. SPbGUEF; Piter, 2008.
40. Kamaev V.D. Ekonomicheskaya teoriya: Kratkiy kurs: uchebnik / V.D.Kamaev, M.Z.Ilchikov, T.A.Borisovskaya. – 2-e izd., ster. – M.: KNORUS, 2007.
41. Kurs ekonomicheskoy teorii: uchebnik / Pod obsh.red. prof.Chepurina M.N., prof.Kiselevoy YE.A. – 6-ispr., dop-e i pererabotannoe izdanie. – Kirov: «ASA», 2007.
42. Sajina M.A., Ekonomicheskaya teoriya: ucheb. Dlya vuzov / M.A.Sajina, G.G.Chibrikov. – 2-e izd., pererab. i dop. – M.: Norma, 2007.
43. Borisov YE.F. Ekonomicheskaya teoriya: ucheb. – 2-e izd., pererab.i dop. – M.: TK Velbi, Izd-vo Prospekt, 2005.
44. Ekonomicheskaya teoriya. Uchebnik. – Izd ispr. I dp /Pod obsh. red. Akad. V.I.Vidyapina, A.I.Dobrinina, G.P. Juravlevoy, L.S.Tarasevicha. – M.: INFRA-M, 2005.

IV.Qo‘shimcha adabiyotlar:

45. Shodmonov Sh.SH., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma‘ruzalar matni. – T.: “Iqtisodiyot” nashr., 2009.
46. Shodmonov Sh.SH., G‘afurov U.V. Iqtisodiyot nazariyasi. Ma‘ruzalar matni. – T.: “Fan va texnologiya” nashr., 2008.
47. Bekmurodov A.SH., G‘afurov U.V. O‘zbekiston – iqtisodiyotni modernizatsiyalash hamda islohotlarni chuqurlashtirishning yangi va yuksak bosqichi yo‘lida: O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisodiyot” nashr., 2008.
48. Bekmurodov A.SH., G‘afurov U.V. O‘zbekistonda iqtisodiyotni liberallashtirish va modernizatsiyalash: natijalar va ustuvor yo‘nalishlar: O‘quv qo‘llanma. – T.: TDIU, 2007.
49. Ziyaev T.M. Ishchi kuchi bandlik nazariyalari. – T.: TDIU, 2007.
50. Ziyaev T.M. Tarmoq va korxonalar iqtisodiyoti. – T.: TDIU, 2007.
51. Shodmonov Sh.SH., Yusupov R.A. Zamonaviy bozor iqtisodiyoti nazariyasi va amaliyoti. – T.: TDIU, 2007.
52. Shodmonov Sh., Alimov R., Jo‘raev T. Iqtisodiyot nazariyasi. – T.: “Moliya”, 2002.
53. Gukasyan G.M. Ekonomicheskaya teoriya: klyucheviye voprosi: ucheb.posob. – M.: INFRA-M, 2010.
54. Borisov YE.F. Ekonomicheskaya teoriya: vopros – otvet. Ucheb. Posobie. – 2-e izd., pererab. I dop. M.: Yur. Firma «Kontrakt»: INFRA-M, 2008.

55. Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan: O‘zbekistonning 20 yilik mustaqil va taraqqiyot yo‘lida qo‘lga kiritgan yutuq va natijalari, mamlakatimizning salohiyati va ahamiyatini aholining keng qatlamlariga yetkazish, joylarda tashkiliy-amaliy, madaniy-ma’rifiy tadbirlar, targ‘ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish uchun mo‘ljallangan ilmiy-ommabop risola / O‘zbekiston Respublikasi “Mahalla jamg‘armasi; mas’ul ijodiy guruh. A.SH.Bekmurodov va boshqalar. – T.: “O‘qituvchi” NMIU, 2011.

V. Statistika ma’lumotlar to‘plamlari:

56. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotining mustaqillik yillaridagi (1990-2010 yillar) asosiy tendensiya va ko‘rsatkichlari hamda 2011-2015 yillarga mo‘ljallangan prognozlar. Statistik to‘plam. – T. “O‘zbekiston”, 2011.
57. Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi. Qashqadaryo viloyatining 2011 yil statistik axborotnomasi, Qarshi, 2010.
58. Qashqadaryo viloyat statistika boshqarmasi. Qashqadaryo viloyatining 2010 yil statistik axborotnomasi, Qarshi, 2009.

VI. Internet saytlari:

59. www.stat.uz – O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.
60. www.uza.uz – O‘zbekiston Respublikasi Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti.
61. www.seep.uz – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligi huzuridagi Samarali iqtisodiy siyosat markazi rasmiy sayti.
62. www.internetindicators.com – Iqtisodiy indikatorlar Internet veb-sayti.
63. www.uzexport.com – O‘zbekiston Respublikasining mamlakat eksporti salohiyati haqida axborot beruvchi rasmiy sayti.
64. WWW.ZiyoNET.uz